

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOT
UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin ”

Fakultet dekani

f.f.d. B.Abdushukurov

“---” -----2018 y

**5141100-“O`zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta'lim yo`nalishi IV kurs
403-guruh talabasi Bahoriddinova Shahzoda Farhod qizining
«Umumta'lim maktablarida O`tkir Hoshimov hikoyalari tahlili»
mavzusida yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ D.Qoraboyev
“O`zbek adabiyotini o`qitish
metodikasi” kafedrasida o`qituvchisi

Taqrizchilar:

_____ R.Niyozmetova
“O`zbek adabiyotini o`qitish
metodikasi” kafedrasida professori.

_____ N. Ziyodova
135-umumta'lim maktabi o`qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“O`zbek adabiyotini o`qitish
metodikasi” kafedrasida mudiri
f.f.d., _____ M.Mirzayeva
2018yil “___”- _____

TOSHKENT-2018

MUNDARIJA

BMIning umumiy tavsifi	3
I bob. Ta'lim bosqichlarida O'tkir Hoshimov hayoti va ijodining o'rganish.....	3
1.1. Nasriy asarlarni o'rganishda badiiy tahlilning o'rni	8
1.2. Umumta'lim maktablarida O'tkir Hoshimov hayoti va ijodining o'rganish.....	17
2-bob. Ta'lim jarayonida O'tkir Hoshimov asarlarini tahlil qilish.....	38
2.1. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini o'rganish.....	38
2.2. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini o'rganish.....	47
2.3. Kasb-hunar kollejlarda O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi" qissasini o'rganish	55
3-bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi.....	64
3.1. O'tkir Hoshimov hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan dars ishlanmalari.....	64
3.2. O'tkir Hoshimov hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan slaydlar.....	74
Xulosa.....	80
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	82

BMIning umumiy tavsifi

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, hayotimizning barcha sohasida tub o`zgarishlar amalga oshirildi. Ularga yangicha nuqtai-nazar bilan qarash, har bir sohani hurfikrlilik va milliylik tamoyillaridan kelib chiqqan holda shakllantirib, jamiyat hayotiga tadbiiq qilish, bugungi kunning ustivor vazifasi sifatida belgilandi. Shu jumladan ta`lim sohasi ham bu borada yetakchi o`rinlarni egallaydi. E`tibor beraylik, biron-bir imorat qad ko`tararkon, uning asosi hisoblangan poydevoriga juda katta ahamiyat qaratiladi. Mustahkam poydevor esa, shakllanayotgan imoratning umriboqiyiligini ya`ni kelajagini ta`minlaydi. O`z mustaqilligini qo`lga kiritgan davlatning poydevori esa, bu albatta, shu jamiyat bag`rida o`sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi. Ularni milliy mafkura ruhida tarbiyalash, avvalo ona vatanga, o`z tarixiga hurmat va muhabbat tuyg`ularini shakllantirish, ta`lim borasidagi o`zbek modelining yetakchi vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu qarashlarni inobatga olgan holda, mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab yosh avlod ta`lim va tarbiyasiga jiddiy e`tibor qaratila boshlandi. Shu kundan e`tiboran birinchi prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek: “Buyuk ma`naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta`lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg`unlashtirish asosida, jahon andozalari va ko`nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”¹

Ta`lim sohasida eski siyosiy qarashlar singdirilgan nazariyalardan vos kechib, zamon talablari asosida, milliylik tamoillari bilan shakllantirilgan yangi davrga asos solindi. Buning isboti sifatida yosh avlod tarbiyasini tizimlilik asosida ishlab chiqilgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta`lim to`g`risida” gi qonunlarni keltirishimiz mumkin. O`zbekiston Respublikasining ”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta`lim-tarbiya tizimida uzliksizlikni taminlashga qaratigan bo`lib, yoshlarni umumiy madaniyatini yuksaltirish, ularni jamiyat, davlat, oila

¹Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. I.A.Karimovning IX sessiyasida sozlagan nutqi.1997-yil, 29-avgust. T:., Sharq, 1997-y,5-b

oldidagi o`z burchi va ma`suliyatini chuqur anglaydigan kishilar sifatida voyaga yetkazish maqsadini ko`zlaydi.”² Bu vazifalarni amalga oshirishda, ta`lim jarayonida o`quvchilar o`zlashtirishi uchun belgilab qo`yilgan o`quv fanlarining o`rni alohida e`tabor talab qiladi. Jumladan adabiyot fani bu bosqicda yetakchi fanlardan hisoblanadi. Bugungi kunda fan-texnika kundan-kunga rivojlanib borayotgan bir davrda, ta`lim jarayonida adabiyot fanini o`qitishga oddiy jarayon sifatida qarash o`zini oqlamaydi. Shu borada professor B.To`xliyevning adabiyot fanini o`qitish haqida bildirgan fikr-mulohazalari e`tiborlidir. B.To`xliyev shunday yozadi: “Adabiyot o`qitish, boshqa fanlarni o`qitishdan anchayin keskin farq qiladi. Shunga ko`ra, uni fan sifatida qaraydigan bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o`qitishni sa`nat turi sifatida baholab, adabiyot o`qituvchisining ishini ham san`atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar ham kam emas. Demak, ular adabiyot o`qitishni ham san`at bilan tenglashtirishadi. Amaliyotchilik nuqtai-nazaridan qaraydiganlar esa, adabiyot o`qitish metodikasini darslarni o`tilishiga bevosita yordam beradigan, har bir darsning yaxshi va samarali bo`lishiga yordam bera oladigan soha deb qarashadi.”³

Klassik va bugungi adabiy jarayonda yaratilgan asarlar, ta`limiy-tarbiyaviy, ma`naviy-axloqiy jihatdan qanchalik mukammal bo`lmasin, u zerikarli va eskirgan ya`ni yaroqsiz metodlar yordamida o`qitilsa, ko`zlangan maqsadga rishib bo`lmaydi. Bu esa adabiyot o`qitishni san`at, adabiyot o`qituvchisini san`atkor darajasiga chiqarish, zamon bilan hamnafas tarzda adabiyot o`qitishning yangi usul va metodlarini kashf qilish, har tomonlama yetuk, milliy ma`naviy jihatdan mukammal, komil insonni tarbiyalashda yangichaizlanishlarni talab qiladi. Maktabda adabiyot o`qitishning bosh maqsadi- deyiladi umumta`lim maktablarining “O`zbek adabiyoti” dasturida “Sog`lom e`tiqodli, umuminsoniy qadriyatlarni anglaydigan, axloqan barkamol, o`z xatti-harakatlari bilan ma`naviy ma`sul bo`la oladigan yetuk

²Niyozmetova.R. O`zbek tili darslarida yangi o`zbek adabiyotini o`qitish masalalari, T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-y,4-b

³To`xliyev.B. Adabiyot o`qitish metodikasi. T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-y, 3-b

shaxsni shakllantirishdir”⁴ Albatta, ushbu maqsadni amalga oshirish, milliy mentalitetimizdan uzoqlashmagan holda, har bir adabiyot darslariga yangicha usullar bilan yondashib, ularni yangicha pedagogik texnologiyalar asosida tashkel qilish talabini qo`yadi.

Biz ushbu tatqiqotimizda yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda, O`zbekiston xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimovning asarlarini tahlil qilish asosida, interfaol usullar vositasida o`rgatishni shakllantirishga harakat qildik. O`zbek adabiyotida shunday yozuvchilar borki, ular o`z asarlarining muqaddimasidan boshlab o`quvchini hayajonga solib, uning ko`nligiga kirishga yo`l izlaydi. O`tkir Hoshimov ana shunday yozuvchilar sirasiga kiradigan ijodkorlardan biridir. Ta`lim jarayonida yozuvchining asarlarini tahlil qilish vositasida o`rgatish, milliy ma`naviyatni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Mavzuning dolzarbligi: Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ta`lim sohasida ham haqiqatdan ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan eng muhim ishtimoiy dasturlar ishlab chiqildi. Biz o`z tadqiqotimizda azaliy qadriyatlarimizga suyangan holda, taraqqiy etgan davlatlar tajribalaridan kelib chiqib, yosh avlodni ma`naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashni oldimizga maqsad qilib qo`ydik. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek: “Ma`naviyat insonni ruhan poklanish, qalban uyg`onishga chorlaydigan, odamni ichki dunyosi,irodasini baquvvat, iymon-e`tiqodini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mevasidir”⁵

Shuni ta`kidlash joizki, bugungi kunda amalga oshiralayotgan yusak taraqqiyotlar zamirida, albatta, mustaqillik deb atalmish tushuncha yotibdi. Bu tushunchaning tub mohiyatini yoshlar ongiga singdirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bu ishni amalga oshirish esa pedagoglar, xususan, adabiyot o`qituvchilari zimmasiga tushadi. Shundan kelib chiqqan holda, ta`lim

⁴Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 5-9-sinflari uchun adabiyot fanidan o`quv dasturi. T.; “Ma`naviyat” gazitasi, 2007-yil, 4-oktabr

⁵Karimov.I.A Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. T.; Ma`naviyat, 2008-y,19-b

maskanlarida faoliyat olib borayotgan adabiyot o`qituvchilarining bosh maqsadi, sog`lom, etiqodli, axloqan barkamol, komil insonni shakllantirishdan iboratdir. Adabiyot darslarida, ma`naviyat tushunchasini o`quvchilar ongiga singdirish, ma`naviy komillikka yetaklaydigan asarlarni, hamda shu bilan bir qatorda hayot tajribalari orqali o`quvchilarga o`rnak bo`la oladigan, shoir va adiblarimizni hayot yo`llarini yoshlarga o`rgatish e`tiborlidir. Shudan kelib chiqqan holda, o`qitishda zamonaviylikka ega bo`lgan yangicha dars o`tish usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tadbiq qilish, lozim va shart hisoblanadi. Bunday holat esa, biz ko`tagan mavzuning qanchalik dolzarb ekanligini belgilaydi.

Tadqiqotning ishlanganlik darajasi: O`zining sermazmun asarlari orqali, adabiyot ixlosmandlarini xursand qilib kelayotgan O`tkir Hoshimov hayoti va ijodini o`rganishga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Adibning ijodi talqini, asarlaridagi badiiy o`ziga xoslik, romanlarida tasverlangan obrazlarning estetik tahlili, amalga oshirilayotgan ishlarni yosh avlodga yetkazish yuzasidan ko`plab adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar samarali ilmiy izlanishlar olib borganlar. Aynan shu masala yuzasidan ko`plab nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Bundan tashqari ilmiy va badiiy maqolalar respublika matbuotida muntazam tarzda e`lon qilinib kelinmoqda. Yurtimizning adib bilan zamondosh adabiyotshunoslari tomonidan, yozuvchi O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida yaratgan asarlari ham, adabiy va tarbiyaviy jarayonda muhim amaliy manba hisoblanadi. Bular sirasiga Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ablug`ofur Rasulov va bir qancha ijodkor va munaqqidlarning asarlari hamda metodist olimi Qunduzoy Husanboyevaning maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yuqorida amalga oshirilgan ishlarda, adib hayoti bilan bog`liq ko`plab lavhalar badiiy tarzda o`quvchilar jamoatchiligiga yetkazilgan. Ilmiy tadqiqotlarda esa, asarlaridagi obrazlar badiiy va ijtimoiy xususiyatdan kelib chiqqan holda tadbiq qilingan. Obrazlarga yuklangan ma`no va mohiyat mohirona ochib berishga harakat qilingan. Bu olib borilgan ishlar adib ijodini badiiy qimmatini qay darajada yuqori ekanligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi: Biz o`z tadqiqotimizda, yuqorida yaratilgan ilmiy-badiiy asarlardan asos sifatida foydalanib, ta`lim muassasalarilarida, tashkil etiladigan adabiyot darslari, sinfdan tashqari o`qitish hamda, mustaqil o`qitish mashg`ulotlarida, O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi bilan bog`liq mavzular doirasidagi darslarni yangicha usullar yordamida tashkil qilishni oldimizga maqsad qilib qo`ydik. Bugungi fan-texnika rivojlanishi hamda bugungi kun o`quvchilarini fikrlash doirasini inobatga olgan holda, bu borada interfaol usullarning rolini yuqori baholab, ulardan samarali foydalanishni rejalashtirdik. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, dars jarayonlarini tashkil qilish uchun elektronik dars ishlanmalari, darsning sifatini oshirishga xizmat qiladigan zamon bilan hamnafas dars o`tish usullarini ishlab chiqishni ham o`z oldimizga maqsad sifatida belgiladik.

Tadqiqotning vazifasi:

- Ta'lim bosqichlarida O`tkir Hoshimov hayoti va ijodini o`rganish yuzasidan DTS, dastur va darsliklarni o`rganish.
- Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini o`rganish mazmuni va metodlarini tadqiq etish, metodik tavsiyalar tayyorlash.
- O`tkir Hoshimov hayoti va ijodini o`rganish, asarlarini tahlil qilish yuzasidan metodik tavsiyalar tayyorlash.
- O`tkir Hoshimov hayoti va ijodini o`rganishda interfaol metodlaridan foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar tayyorlash.
- turli pedagogik texnologiyalar, zamonaviy usullardan foydalangan holda dars ishlanmalari tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: Umumta'lim maktablari va kasb-unar kollejarining adabiyot darslarida O`tkir Hoshimov hayoti va ijodini o`rganish, asarlarini tahlil qilish usullari.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Adabiyot darslarida O`tkir Hoshimov hayoti va ijodini o`rganishga bag`ishlangan darslarda

axborot texnologiyasidan foydalanish ishlarini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi, ta'lim shakllari, vositalari, metod va usullari yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Ishning materiallari va tavsiyalaridan, dars ishlanmalaridan muayyan shoir hayoti va ijodini o'rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Hozirda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan, barcha islohatlarning mazmun-mohiyati bir narsaga, ya'ni ta'limning sifatini oshirish, dars jarayonida kam kuch sarflab, ko'proq samaradorlikka erishishga qaratilgan. Biz ham ushbu nazariyani esdan chiqarmagan holda, ilmiy-nazariy adabiyotlardan metodologik manba sifatida foydalanib, belgilangan mavzu yuzasidan interfaol dars ishlanmalar, asar qahramonlariga xolisona baho bera olish malakalarini rivojlantirish, adib asarlarida ilgari surilgan umumbashariy g'oyalarning tub mohiyatini to'g'ri tahlil qilish usullari ishlab chiqilib, amaliyotda sinovdan o'tkazildi. **Tajriba-sinov maydonchasi** - Ilmiy tadqiqot ishi Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 135- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-6-sinflarida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Ishning tarkibiy tuzilishi. BMI uch bob, olti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 84 sahifani tashkil etadi.

I bob. Ta'lim bosqichlarida O'tkir Hoshimov hayoti va ijodining o'rganish

1.1. Nasriy asarlarni o'rganishda badiiy tahlilning o'rni

Badiiy asar tahlili ham badiiy asar ustida ishlash bosqichlarining eng muhimlaridan biridir. Tahlilning maqsadi, vazifasi, tarkibi va o'ziga xos mazmuni mavjud. Biroq ularni har doim bir xilda bo'ladi, deb tasavvur qilish to'g'ri emas. Har bir ijodkor, har bir asar bilan bog'liq holda tahlil ham o'ziga xoslik kasb etadi.

Ma'lumki, "amaliyotda badiiy tahlil qanday maqsadga yo'naltirilganligiga qarab ikki turga: *filologik (ilmiy) va didaktik (o'quv) tahlil*ga bo'linadi.

Filologik tahlil adabiy asarning badiiy mantig'i va estetik o'ziga xosligini anglashga yo'naltirilgan *ilmiy talqin bo'lib*, kuchli *hissiy-intellektual faoliyatdir*. Ilmiy tahlilda badiiy asardan chiqarilgan xulosalarning adabiyotshunoslik ilmi erishgan darajalarga muvofiq kelishi talab etiladi. Tahlil jarayonida bildirilayotgan har bir fikr ham mantiqiy tushunchalar, ham estetik qonuniyatlar bilan asoslangan bo'lishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy tahlilda o'rganilayotgan asarning umummilliy adabiyotdagi o'rni va milliy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri darajasi ko'zda tutilishi kerak. Filologik tahlil ommaboplikdan yuqoriroq turishi va har qanday adabiy hodisa mutaxassis nazari bilan tahlil etilishini taqozo qiladi. Lekin filologik tahlildagi asosiy narsa badiiy asarning badiiyligini, ta'sirchanligini ta'minlagan jihatlari qaysilar, badiiy joziba, so'z sehri, san'atning sirli tomoni nimada ekanligini ko'rsata bilishdir"⁶. Ayni xususiyatlar o'z navbatida ilmiy tahlilning yozma shaklga asoslanishini ko'rsatadi. Badiiy tahlilning yozma shaklini filologik tahlillar tayin etadi.

"Filologik tahlil har qanday adabiy hodisaga mutaxassis nazari bilan qaralishini taqozo qiladi. Ilmiy tahlil adabiy asarning badiiyligini ta'minlagan jihatlardan iborat ekanini ko'rsatishga qaratilgan ilmiy-estetik faoliyatdir. U, asosan, bir kishi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy tahlil bilan shug'ullanayotgan mutaxassis vaqt

⁶ Qozoqbo'y Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T.: "Kamalak", 2016. 37-b

jihatidan ham, imkoniyat jihatidan ham bir qadar erkin bo‘lib, o‘zi belgilab olgan bosh maqsadga qarab intiladi⁷.

“**O‘quv tahlili** o‘quvchi yoki talabalarda asar mohiyatini anglashga xizmat qiladigan miqdordagi badiiy bilim va ko‘nikmalar shakllantirish orqali ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga yo‘naltirilgan jamoa shaklidagi **estetik-pedagogik faoliyatdir**. O‘quv tahlili mobaynida o‘qituvchi yoki professor hamisha o‘quvchi yoxud talabalar bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatadi. Bunda ular asarni tanlash imkoniga ega emas (dasturga amal qilinadi). SHuningdek, o‘quv tahlili joy (auditoriya yoki sinf) va vaqt (bir dars yoki uning qismi) jihatidan ham cheklangan bo‘ladi. Tahlil asnosida o‘quvchilarning yosh va intellektual darajasi hisobga olinishida namoyon bo‘ladigan intellektual ma‘naviy chegara ham mavjud. Shu jihatdan o‘quv tahlilini amalga oshirish filologik tahlilga nisbatan murakkabroqdir”⁸. Ta‘lim bosqichlarida amalga oshiriladigan didaktik tahlilbadiiy tahlilning og‘zaki shaklida namoyon bo‘ladi.

Badiiy tahlil “ilmiy-estetik jarayon” bo‘lgani bois u muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich – badiiy tahlilga **tayyorlanish bosqichi** bo‘lib, bunda badiiy asar yaxlit butunlik sifatida o‘qib o‘rganiladi, tahlil qilinishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlar, e‘tiborli nuqtalar belgilab olinadi.

Ikkinchi bosqich – **badiiy matn ustida ishlash jarayoni** bo‘lib, bunda asar “alohida elementlari” bo‘yicha jiddiy tahlilga tortiladi. Adabiy matnning “jozibadorligini ta‘minlagan estetik omillar: timsollar tizimi, personajlar ruhiyatini ko‘rsatishda qo‘llanilgan usullar, ifoda tarzidagi o‘ziga xoslik, til xususiyatlari singari jihatlar tekshiriladi”.

Uchinchi bosqich – **umumlashtirish, alohida olingan qismlarni birlashtirish** dan iborat bo‘lib, bunda tahlil yuzasidan yakunlovchi xulosaga kelinadi. Ijodkor mahoratiga munosabat bildiriladi. Tahlil qilinayotgan asarning

⁷ Q. Yo‘ldoshev. Mohiyatni anglatish yo‘li. \ “Sharq yulduzi”. T., 2010, 159- b.

⁸ Q. Yo‘ldoshev. Mohiyatni anglatish yo‘li. \ “Sharq yulduzi”. T., 2010, 159- b.

ijodkor adabiy faoliyatidagi va “milliy badiiy tafakkur taraqqiyotidagi” o‘rni hamda ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati yuzasidan umumiy xulosa qilinadi. Akademik litsey ta’lim tizimida tahlilning mazkur bosqichlarigato‘liq amal qilishga erishish lozim. Ana shunda didaktik tahlildan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlar samarali amalga oshadi, o‘quvchilarning adabiy tahlil malakasi takomillashadi.

Biroq, ba’zi hollarda adabiy ta’lim imkoniyatlari bunday tugal tahlillarga keng yo‘l berolmaydi. Ta’lim jarayonida, didaktik tahlilda badiiy asar tahlilining har uchala bosqichini birvarakayiga amalga oshirishning imkoniyati chegaralangan. Chunki, akademik litsey ta’limida ham boshqa ta’lim bosqichlari (umumiy o‘rta maktab, kasb-hunar kollejlari)da bo‘lgani kabi “badiiy asarning barcha qismlari birdaniga emas, balki mazkur bosqich uchun eng muhim hisoblangan tomonlarigina tahlilga tortiladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va dunyoqarashi, umumiy adabiy tayyorgarligi nazarda tutiladi. Uchinchidan esa, vaqt imkoniyatlarining qat’iy chegarasi ham shuni taqozo etadi”. Demak, mazkur omillar adabiy ta’limda badiiy tahlilning yaxlitlik tamoyili talablarini to‘la bajarishda ham bir qadar qiyinchiliklar keltirib chiqarishi tabiiy. Shunga ko‘ra, mazkur masalalar borasida biz badiiy tahlilning yaxlitlik tamoyili tasnifida batafsilroq to‘xtalamiz. Ammo, shu o‘rinda aytish kerakki, o‘qituvchining o‘zi badiiy tahlil bosqichlariga tegishli ilmiy-estetik jarayonni har doim diqqat markazida tutib, ular o‘rtasidagi uyg‘unlik va uzviylikni saqlab qolishga harakat qilsa, o‘rganilayotgan asarlar tahlili uchun ulardan qay biri ustuvor bo‘lishini qat’iy belgilab olsa va keyingilaridan yordamchi vosita sifatida foydalansa, albatta tahlil samaradorligini oshirishga erishadi. Bunda, masalan, hajman katta bo‘lgan epik yoki dramatik asarlarning darslikdan tashqaridagi to‘liq nashr variantini o‘quvchilarning o‘ziga o‘qib kelishni topshirishi mumkin. Demak, tahlilga tortiladigan badiiy asarni o‘qib-o‘rganish jarayonida o‘quvchi uni “yaxlit butunlik sifatida idrok etadi”, asarning asosiy mazmuni, uning badiiy g‘oyasi, asosiy obrazlari bilan dastlabki tanishuv amalga oshadi. Shu taxlit ikkinchi bosqichdagi vazifalarning ijobiy hal etilishiga zamin hozirlanadi. Shuningdek, tahlilning yakunlovchi boqichiga ham yetib borish, o‘rganilayotgan asar yuzasidan umumlashtiruvchi xulosalarchiqarish imkoniyati

ham yuzaga kelishi mumkin. Adabiy ta'limda badiiy asar tahlilini bosqichma bosqich, to'raligicha amalga oshirishning imkoni bo'lmasada, unda o'quvchilarni badiiy-estetik tafakkur qonuniyatlari, ijodkorning o'ziga xos uslubini namoyon qiluvchi tasvir ifodalari, asarning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati xususidagi bir qadar ma'lumotlar bilan tanishtirish, har bir asarga alohida estetik hodisa sifatida munosabatda bo'lish malakalarini shakllantirish va mustahkamlash, shu asosda esa o'quvchilar ma'naviy olamini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlar mavjud. Bunday samarali faoliyat esa adabiyot o'qituvchisining bilimdonligi, zukkoligi, bugungi zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalana olishi, metodik tajribasi bilan chambarchas bog'liq.

Badiiy asar qaysi tur va janrga mansubligidan qat'i nazar, uning mohiyatida inson shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish, odamiylik sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan bir qator didaktik xususiyatlar, estetik tamoyillar mujassamlashgan bo'ladi. "Badiiy asarning eng muhim xususiyati shundaki, u inson qalbini mayinlashtiradi, tuyg'ularini o'tkirlashtiradi, ma'naviy-ruhiy barkamollikni tarbiyalaydi".⁹

Shunga ko'ra, badiiy asar tahlili o'quvchi ma'naviyatini boyituvchi, uning nafosat olamini, his-tuyg'ularini tarbiyalovchi, ruhiy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi mustahkam omillardan biri hisoblanadi.

O'quv tahlili tamoyillari talabini to'la qonli bajarishda tahlilga tortilayotgan asarlarning tur va janr xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tahlil avvalida o'rganilayotgan badiiy matnning adabiy tur xususiyatlari, janr imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Shunga ko'ra lirik asarlarni o'rganishda qo'llanilgan usullarni aynan qo'llab, epik yoki dramatik asarlarni tahlilga tortishning iloji yo'q. Har bir tur o'z estetik mohiyati, badiiy qonuniyatlariga ko'ra tahlil usullari va tamoyillariga tayangan o'zgacha yondashuvlar, o'ziga xos munosabatni talab qiladi. Asarning badiiy tabiatida tur xususiyatlari muhim o'rin tutar ekan, demak, tahlilda ham ana shu o'ziga xoslik qat'iy saqlanadi.

⁹A.Rasulov. Tanqid, talqin, baholash. -T.: "Fan", 2006, 16-b.

Badiiy adabiyot o'zining tur va janr imkoniyatlari bilan shu qadar rang-baranglik kasb etadiki, uning qa'riga qanchalik chuqur sho'ng'isang, shunchalik ko'p ma'no-mohiyat durlarini qo'lga kiritasan. Adabiy matn turlari yoki janr xususiyatlari o'zgarib borgan sayin ta'limiy tahlil tamoyillarining talablari hamisha o'zgarmasligini, bunda faqat tahlil usullari yoki munosabat ayricha tus olishi mumkinligini unutmaslik lozim. Masalan, o'quv tahlilining yaxlitlik, tizimlilik, emotsionallik, individuallik, tarixiylik, mazmundan shakl sari borish, mukammal va tugal tahlilning bo'lmasligi, pedagogik maqsadning ustuvorligi singari barcha tamoyillari lirik asarlar tahlili uchun ham, epik va dramatik asarlarni o'rganish uchun ham qat'iy talab bo'lib qolaveradi. Bunda faqat asarning tur va janr xususiyatiga qarab talqiniy yondashuv o'zgacha bo'lishi, tahlil usullari o'zgarishi, o'ziga xos metodlarni talab qilishi mumkin. Bu borada mohir metodist olim M.A.Ribnikova shunday deydi: "Metodik usullarni asar tabiati taqozo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi, oltinchilarini tezroq tahlil qilib qisqacha hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfga o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masal esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi"¹⁰. Ko'rinadiki, asar tahlilida uning tur va janr xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Badiiy matn tahlilida uning tur va janriga xos jihatlarni e'tiborga olib o'rganish, shu asarning o'ziga xos takrorlanmas badiiy-estetik mohiyatini to'la anglashga imkon beradi, hissiy ta'sirchanlikni oshirishga turtki bo'ladi. Zero, "Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli tuman qahramonlar, bir-biriga

¹⁰To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zMK nashriyoti. 2010 .68-b.

o'xshamaydigan sahnalar, alohida joy, manzara, vaziyat tasvirlari, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi"¹¹. Badiiy asar matniga xos bu komponentlar tarkibi va tartibi o'z navbatida uning tur va janr xususiyatlarini ham namoyon qiladi. Jumladan, epik turga mansub asarlar tabiatida mazmuniy ko'lamdorlik, qahramonlarning voqea-hodisalar og'ushida suzib yurishi, obraz va personajlar salmog'ining og'irligi, hayotiy sharoit va vaziyat tasvirlarining rang-barangligi, "har qanday hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan bo'lishi", insonning ming bir qiyofa kasb etuvchi murakkab ruhiy dunyosi hayotiy ziddiyatlar, ijtimoiy muammolar va munosabatlar zamirida tasvirlanishi singari jihatlar asosiy o'rinda turadi. Shu bois epik asarlarni o'rganish ham o'ziga xos tahlil va talqinni talab qiladi.

Binobarin, akademik litseylarda epik asarlarni tahlil qilish o'ziga xos metodik asoslarga ega. Bu bosqich adabiy ta'limida "badiiy asarlarning o'ziga xos syujeti va kompozitsiyasini, tasvir usulini, asar qahramonlari qiyofasini o'rganish orqali muallif nuqtai nazarini mushohada qilishga yo'llash; epik asarning badiiy tafakkur tarzini tahlil qilish va asarga estetik baho berish me'yorlarini o'quvchilarning o'zlashtirib olishlariga erishish – asosiy ta'limiy maqsadni tashkil etadi"¹². Ana shu ta'limiy maqsadni amalga oshirish jarayonida esa o'quvchilar ma'naviy olamida ham bir qadar o'sish va o'zgarishlar yuz beradi; har bir asarning mazmuniy g'oyasida o'quvchilar ma'naviyatida muayyan fazilatlarni tarkib toptirish, ruhiy kamolot manzillari sari yetaklash imkoniyatlari mavjud.

Epik asarlarni o'rganish va tahlil qilish vositasida, o'quvchilar, xususan, "asardan badiiy zavq olishga, hayratlanishga o'rganadilar. Eng muhimi, o'quvchining estetik didi shakllanib boradi: go'zallik yo dag'allik, noziklik yo qo'pollik tushunchalariga, turfa holatlarga, hatti-harakatlarga nisbatan o'quvchi munosabati tarkib toptiriladi. Zero, har qanday ta'lim-tarbiya yoshlarni hayotga,

¹¹B.To'xliiev.Adabiyot o'qitish metodikasi. A.Navoiy nomidagi O'zMK. nashriyoti, T.:2010, 69- b.

¹²M.Mirqosimova. O'quvchilarda adabiy tahlil malaasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. -T.: "Fan", 2006, 57- b.

odamlarga, el-yurtga, ezgu maqsad va tilaklarga sog'lom munosabatini tarkib toptirishga yo'nalsagina samarali yakunlanadi"¹³.

Epik turga mansub asarlar tahlilida hajm masalasi birlamchi o'rin tutadi. Chunki bu turdagi asarlar janriy talabiga qarab ularning hajm salmog'i ham ortib boradi. Masalan, qissa hajman hikoyadan katta bo'lsa, roman hajmi qissadan bir necha barobar ortiq. Epopeyalar esa yanayam hajmdor, demak, voqealar ko'lami ham kengayib boraveradi. Shu bois adabiy ta'limda bunday asarlar tahlili o'ziga xos murakkab jarayon sanaladi. Bu o'z navbatida tahlilning birinchi bosqichi bo'lgan asarni o'qish-o'zlashtirish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Epik asarlarning hajm salmog'i o'quv tahlilida vaqt degan qat'iy me'yor bilan har doim ham murosa qila olmasligini e'tiborda tutish muhim. Chunki, hikoya yoki hikoyatni bir dars davomida o'qib chiqishga vaqt yetishi mumkin, ammo qissa yoki romanlarda bunday imkoniyat yo'qqa chiqadi. Yirik hajmdagi asarlarni o'qib-o'zlashtirish uchun "yirik vaqt" ham talab qilinishini unutmaslik lozim. Shu boisdan o'qituvchi adabiyot dasturida tahlil qilinishi, jiddiy o'rganilishi ko'zda tutilgan yirik asarlarni o'qib, ularning mazmuni bilan tanishishni "o'quvchilarga o'quv yili boshidayoq" vazifa sifatida topshirib qo'yishi shart. Bunda qaysi asarni qaysi vaqtgacha o'qib bo'lish lozimligi ham uqtiriladi. Yoki o'quvchilar asarlarni o'qib, uni o'rganishgacha bo'lgan vaqtga qadar unutib qo'ymasligi, tahlil jarayonida chalkashib ketmasligi uchun har oy avvalida shu oyda o'rganiladigan asarni to'la o'qib chiqishni vazifa qilib berishi mumkin. Ana shunda dars jarayonida to'g'ridan to'g'ri tahlilning ikkinchi bosqichiga o'tib, bevosita badiiy matn ustida ishlash mumkin bo'ladi. Chunki o'quvchilar o'rganilayotgan asar matni bilan, uning syujeti va kompozitsiyasi bilan bir qadar tanish. Ya'ni tahlilning birinchi bosqichi amalga oshirilgan – adabiy asar o'qib-o'zlashtirilgan. Shuni e'tiborga olgan holda "katta hajmli epik asarlarni tahlil qilishda vaqtdan samarali foydalanish uchun adabiyot o'qituvchisi badiiy asardagi muhim jihatlarni, pedagogik maqsadga ko'proq xizmat qilishi mumkin bo'lgan qirralarni estetik tahlil uchun unchalar ham ahamiyatli

¹³M.Mirqosimova. O'uvchilarda adabiy tahlil malaasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. -T.: "Fan", 2006, 58- b.

bo‘lmagan nomuhim jihatlardan to‘g‘ri farqlay bilishi talab etiladi. O‘qituvchi unga yondashish yo‘li va usulini to‘g‘ri belgilay olishi lozim”¹⁴. Shu o‘rinda qayd etish joizki, adabiy asar tahlilini uning mazmunini so‘zlab berish, faqatgina asosiy qahramonlar xarakteriga (ijobiy yoki salbiyga ajratib) tavsif berishdek pedagogik maqsadga muvofiq kelmaydigan faoliyat bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Agar o‘qituvchi asosiy e‘tiborini asarning mazmuniga qaratsa, “yozuvchi bunday demoqchi” deya g‘oyaviy talqinga yo‘l bersa, adabiy ta‘limning chegaralangan, qimmatli vaqtini asar mazmunini so‘zlab berishga sarflasa, bunday faoliyat o‘quv tahlili talablari rad etilgan, tahlil tamoyillariga loqayd munosabatda bo‘lingan maqsadsiz va samarasiz faoliyat tusini oladi. Bu esa adabiy ta‘lim me‘yorlariga zid jarayondir. Shu boisdan, xususan, yuqori sinflarda va akademik litsey, kasb-hunar ta‘limi bosqichlarida epik asarlarni tahlilga tortayotganda asosiy e‘tiborni asar badiiyatini tayin etgan, yozuvchi mahoratini, o‘ziga xos uslubini namoyon qilgan jihatlar (obrazlar, badiiy detallar, kompozitsion unsurlar, tasviriy ifodalar, til jozibasi kabilar)ga, emotsional xususiyatlari bo‘rtib ko‘rinadigan o‘rinlarga qaratish ta‘limiy tahlilni ilmiy darajada amalga oshirishga turtki bo‘ladi, pedagogik maqsadni muvaffaqiyat sari yo‘naltiradi.

O‘qituvchining bayoni asarni o‘qiganchalik estetik zavq uyg‘otishga qodir emas. Bayon hikoyaning o‘rnini egallashi uchun esa uni boshidan oxirigacha yod olish va yoddan aytish zarur bo‘ladi.

Ifodali o‘qish metodini qo‘llash orqali o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berish va ularni kamol toptirishning talay muhim vazifalarini samarali hal etish uchun keng imkoniyatlar tug‘iladi. O‘qituvchining asar tahliliga yo‘l ochib beradigan ifodali o‘qishi, uning mazmunini o‘zlashtirish sari yo‘l ochadigan “kalit”dir. Badiiy nutqdagina uni tashkil etuvchi so‘zlarning ma‘nolarini, mantiqiy munosabatlarini ohang orqali uqib olish, badiiy nutqning jonli va jo‘shqin so‘zdagina to‘liqroq namoyon bo‘luvchi emotsional-ifodali tomonlarini idrok etish mumkin. Ifodali o‘qishning ta‘siri tezda bilinadi: buni o‘quvchilarning ko‘zlari aytib turadi. Lekin

¹⁴Q.Yo‘ldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: “O‘qituvchi”, 1996, 137- b.

badiiy matnni emotsional idrok etish samarasi asarning hayotiy mazmuniga o'quvchilarning bevosita emotsional javoblaridagina iborat emas. O'quvchilarni asarning intonatsion qurilmasida muhrlangan muallif tuyg'ulari va badiiy asarga xos bo'lgan asosiy intonatsiya ta'sirlantiradi. Busiz estetik kechinmalar paydo bo'lmaydi, busiz asar ustidagi tahlil ishlarini samarali tashkil etish mumkin emas. Intonatsiya asarda ifodalangan g'oyaviy mazmun, tag ma'no bilan bog'liq. Emotsional idrok, intonatsiya ifodalilikni belgilovchi asosiy omildir. O'quvchilar asarni o'qir ekanlar, uning qaysi bir sahifalarini umuman tashlab ketishlari, nimalarnidir tushunmasliklari mumkin, lekin asar intonatsiyasini, bunda tug'ildigan ichki eshituv tasavvurlarini idrok etish, mayli u hali aniq bo'lmasin, u haqdagi ilk taassurotlarga yaxlitlik tavsifini baxsh etadi, tahlil paytida uni tushunishni chuqurlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy ta'limda epik asarlarni o'rganishdagi yana bir muhim jihat o'quvchilarning yosh xususiyati bilan bog'liq. Agar tahlil uchun tanlanayotgan asarda o'quvchilarning fiziologik xususiyatlari, o'zlashtirish qobiliyatlari e'tiborga olinmasa, adabiy ta'lim o'z maqsadini amalga oshirolmaydi. Buni bugungi mutaxassislarimiz chuqur anglagan holda, dastur va darsliklar yaratishda o'quvchilarning o'zlashtirishi oson kechadigan, tahlilda muvaffaqiyat qozona oladigan, ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga turtki beradigan adabiy asarlarni tanlashayotganligini alohida e'tirof etmoq joiz. Bunday ijobiy holatlar maktab adabiy ta'limida ham, akademik litsey ta'lim bosqichida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, quyi sinflarda, asosan, xalq ertaklari, adabiy ertaklar, mumtoz adabiyotga tegishli kichik hikoyatlar, hikoya va ba'zan asosiy qahramonlari yosh bolalar bo'lgan qissalar (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari", Ch.Aytmatov "Oq kema" kabi) berilsa, yuqori sinflarga borib bu janriy ko'lamdorlik ham hajman, ham mazmunan oshib boradi. Endi yuqori sinflarda o'quvchilar katta hajmdagi asarlar badiiyati bilan tanishadilar. Ertaklar, hikoyatlar o'rnini yirik qissa va romanlar egallaydi. Akademik litseylar uchun ham ayni xususiyat davom ettiriladi. Jumladan, bu bosqichda epik turning ilk yozma namunalari (Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy" asari)ni, mumtoz adabiyotga tegishli epik asarlarni (A.Navoiyning "Hamsa"

dostonlari, Boburning “Boburnoma”si, Xoja hikoyatlari kabi) imkon qadar keng o‘rganish ko‘zda tutiladi. Ayniqsa, akademik litseylarning 3- bosqichida XX asr adabiyotining zabardast allomalari qalamiga mansub bir qator sara romanlarni, epopeyalarni o‘qib-o‘zlashtirish, ularning badiiy-estetik mohiyatini tayin etgan omillarni tahlilga tortish, ma’naviy-ma’rifiy qimmatini o‘rganish tavsiya qilingan. Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Qodiriyning “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy”, A.Qahhorning “Sarob”, Odil Yoqubovning “Diyonat”, “Ulug‘bek xazinasi” romanlari, S.Ahmadning “Ufq” trilogiyasi shular jumlasidan bo‘lib, tahlil uchun tavsiya qilingan mazmun-mohiyati teran, badiiy qiyofasi ko‘rkam bu adabiy asarlarni tahliliy asosda o‘qib-o‘rganish talabalarning intellektual salohiyatini oshirishga, badiiy tafakkurini o‘stirishga munosib hissa qo‘shadi. SHuningdek, bu bosqichda o‘zbek nasrini turli janrdagi asarlari bilan ham son, ham sifat jihatdan boyitgan A.Qahhor, A.Muxtor, O.Yoqubov va P.Qodirovlarning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish jarayonida ularning nafaqat romanlari, balki boshqa bir qator hikoya va qissalarini ham qisman bo‘lsa-da o‘rganishga ahamiyat qaratilganligini alohida ta’kidlash joiz. Badiiy asarlar tanlovidagi bunday yondashuv o‘quvchilarga har bir ijodkorning individual ifoda uslubi, badiiy-estetik tafakkuri, yozuvchilik mahorati xususida ham mukammal ma’lumotlar berishni, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Zero, adabiyot - ma’naviyat ko‘zgusi, inson qalbini, ruhiy olamini kashf qiluvchi va o‘z navbatida ana shu qalb go‘zalligini, ruh pokligini tarbiyalovchi so‘z san’ati ekan, bu borada uning imkoniyat ko‘lami cheksiz bo‘lishi tabiiy.

1.2. Umumta'lim maktablarida O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodining o‘rganish

O‘zbek adabiyotini darslarida o‘quvchining kitobxonlik darajasi, o‘qilgan asarni tushunishning chuqurligi aniqlanadi. O‘zbekcha nutqning rivojlanish darajasi belgilanadi. O‘zbek adabiyoti darslarida adabiy asarlarni o‘rganishdan maqsad o‘zbekning ruhiyatini anglatish orqali o‘quvchining ma’naviy dunyosini boyitishdan

iboratdir. Buning uchun o'quvchi o'zga abiyotning nazariy asoslari bilan ma'lum darajada tanish bo'lishi talab etiladi. Qolaversa, nazariy tushunchalarni bilgan o'quvchi badiiy hodisani tahlil qilganda, asar haqida gapirganda fikrini asosli ifodalay oladi. Ayni vaqtda badiiy asar o'rganish adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish uchun emas, balki adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish badiiy asarlarni to'laroq anglash uchun kerakligi hamisha diqqat markazida bo'lishi lozim. Ular o'rganilgan asarning badiiy go'zalligini ochish uchun kerak. Bu o'rinda birinchi planda adabiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki adabiy asarlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining ma'naviyatini boyitish turadi.

O'zbek adabiyoti darslarida muayyan asarni o'rganishda uni yaratgan adib hayotidan shu asarning yaratilishi doir faktlardan foydalanish katta samara beradi. Yozuvchi shaxsiyatiga xos xususiyatlar, uning hayotida kechgan voqea-hodisalar badiiy asar mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatadi, singib ketadi. Ma'lumki, har bir kishining ko'nglida ikkinchi bir kishining hayotiga, ayniqsa, mashhur kishi bo'lsa, juda katta qiziqish yotadi. Darslarda yozuvchining shaxsiga qancha jiddiy va chuqur kirib borilsa, o'quvchi uni shaxs sifatida qancha ko'p va xo'b bilsa, uning asarlari ham shunchalik chuqur o'zlashtiriladi.

Bugungi pedagogika-psixologiya fani shuni isbotlab berdiki, tarbiya samarali bo'lishi uchun bolada shakllantirilishi lozim bo'lgan har bir ma'naviy sifatga unda ijobiy munosabat uyg'otilishi kerak. "Uzluksiz adabiy ta'lim konsepsiyasi"da ham shunday ta'kidlanadi: "Ayni vaqtda o'smirga ezgu ma'naviy fazilatlar, go'zal insoniy amallar bevosita ko'rsatilsa va tarbiyalanuvchiga majburan tiqishtirilmay, ruhiyatiga tabiiy ravishda, zo'rliksiz singdirilsa, bola ma'naviyatining ajralmas sifatiga aylanadi.

O'zaro muomala, munosabat deb atalmish qiyin bir mexanizmning amalga oshirilishi o'sha munosabatlarning ijobiy yoki salbiyligiga bog'liq"¹⁵.

Yangilangan pedagogika uchun ma'naviyati boy, qarashlari tiyrak, fikrlari sog'lom kishilarni tarbiyalash birinchi o'rinda turadi. Soo'lom fikrli shaxslar

¹⁵Uzluksiz adabiy ta'lim konsepsiyasi. -T.: O'zbekiston PFITI, 1995. 10-b.

jamiyatning taraqqiyotini to'g'ri belgilaydilar. Ma'naviyati to'g'ri shakllangan insongina ilmga intiladi. Inson ruhiyatining, ichki dunyosining qanchalar boyligi uning turmush tarzini belgilaydi. Har bir konkret insonning saviyasi birlashib, millatning umumiy saviyasini belgilaydi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Mana shu fazilatlarining barchasini to'g'ri tashkil etilgan adabiyot darslari shakllantiradi. O'zbek adabiyoti darslari adabiy-badiiy, ilmiy-ijodiy bir spektaklga aylanishi kerak, toki unda har bir o'quvchining o'z roli, o'rni, vazifasi bo'lsin.

Adabiyot darslarida har bir o'quvchining shaxsi, hayoti, kayfiyati o'qituvchining diqqat markazida turishi lozim. Adabiyot darslari inson ma'naviyati bilan shug'ullanar ekan, adabiyot o'qituvchisi kasbining asosi – amaliy insonshunoslik bo'ladi. O'qituvchi har bir o'quvchida shaxsni, insonni ko'rishi va uni chuqur bilishi shart. Adabiyot darslarida, ayniqsa, o'zbek adabiyoti darslarida hech bir harakat, hech bir ish shunchaki qilinmasligi zarur. Hammasi yaxshilab o'ylangan, puxta rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Adabiyot o'qituvchisi darslarda ko'pincha bo'lib turadigan kutilmagan, tasodifiy muammolarni ham oldindan ko'ra bilishi va ularga tayyor turishi kerak.

O'zbek adabiyotini ham ulkan bir daraxtga qiyos qiladigan bo'lsak, uning kundan-kunga yangicha ko'rk ochib, rivojlanib borishida tom ma'noda ildiz vazifasini bajarayotgan ijodkorlarimizning o'rni beqiyosdir. O'zining ibratli hayot yo'li hamda mazmunli asarlari bilan osha adabiyot beb atalmish daraxtni ozuqa bilan taminlab turgan adiblarimizdan biri bu, shubhasiz O'tkir Hoshimovdir. Adib haqida gap ketganda taniqli munaqqid Umarali Normatovning quyidagi fikrlari harakerlidir. "Ilk qissasi "Cho'l havosidan" tortib, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobiga qadar, barcha asarlariga xos mushtarak holat shuki, ular betakror, benazir, sirli musiqiy ohang bilan yozilgan. Muallif qo'lidagi qalam go'yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so'zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she'rdek, dostondek o'qiladi, ular ysama sozda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko'p

ovozli simfoniyani eslatadi...”¹⁶ Yuqoridagi fikrlardan ham ko`rinib turibdiki, O`tkir Hoshimov asarlari xalqchilligi, yuksak falsafiy mushohadaga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Ta`lim jarayonida O`tkir Hoshimov hayoti va ijodini o`rgatib, o`sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda adib asarlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni o`qigan o`quvchida tabiiy ravishda onaga, vatanga, yor-u do`stga nisbatan chiksiz mehr-muhabbat, urish, jaholat kabi salbiy illatlarga nisbatan nafrat tuyg`usi shakillanadi. Demak, bemalol aytish joizki, ta`lim jarayonida O`tkir Hoshimov ijodini o`rgatish, komil inson tarbiyasida tayanch nuqta vazifasini bajara oladi. Bunday asarlarni topish, ularni maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o`quv dasturiga kiritish har jihatdan foydalidir. Shu o`rinda bir savol tug`ilishi mumkin. Xo`sh, ularni o`quvchiga yetkazish, asarning mazmun-mohiyatiga ularni oshno qilish uchun nima qilish kerak? Shu o`rinda professor B.To`xliyevning quyidagi fikrlariga e`tibor qaratishni joiz topdik. B.To`xliyev shunday deydi: “Adabiyot o`qitish uchun maxsus fan kerakmi? Jamiyatda shunga ehtiyoj bormi? Ta`lim bosqichlarida adabiyot fanini yaxshi o`rganish va o`rgatish uchun adabiyot muallimlari qayg`urishi kerakmi yoki adabiyotshunoslarmi, pedagoglarmi yoki ruhshunos-psixologlarmi? Albatta, bunday savollarning keti uzilmaydi. Ular necha marotaba berilgan edi, bugun ham berilmoqda. Ularni ertaga berilmay qolishi amri-mahol”.¹⁷ Asar qanchalik yaxshi yozilgan bo`lmasin, uni o`quvchiga yetkazib berish talabga javob bermasa, bu asarni bir uyum qog`ozdan farqi yo`q. domla takidlaganidek, adabiyot fanini yaxshi o`rgatish va o`qitish uchun kim javobgar? Adabiyot o`qituvchisimi yokibo`lmasa adabiyotshunoslarmi? Afsuski, bu va bunga o`xshash savollar bugungi kunning

¹⁶Normatov.U Yangi o`zbek adabiyoti. T.; Universitet, 2007-y,149-b

¹⁷To`xliyev.B Adabiyot o`qitish metodikasi. T.; Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010-y,3-b.

ham, eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Buni hal qilish uchun nima qilish kerak?- degan savolning hali-hanuz javobi topilgan emas.


Sevimli yozuvchimiz Said Ahmad: «O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas doston deb atashni istar edim. U qo‘shiqday o‘qiladi, uni o‘qib turib o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi», -deydi.


Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun asar “Dunyoning ishlari” deb nomlanadi?
2. Adibning onasiga bitgan “Iltijo” sini o‘qib, o‘zingizda paydo bo‘lgan his-tuyg‘ularni bayon qiling.
3. Adibning “Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi” degan so‘zlarini izohlab bering.
4. “Onalar mehri beqiyos” mavzusida insho yozing.

O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodini o‘rganishda quyidagi “Klaster” dan foydalanish mumkin.

VIZUAL MATERIALLAR







“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”da yozuvchining hayotiy falsafiy qarashlarining ifodalanishi


Tabiat, jamiyat, inson haqidagi falsafiy mushohadalar

Farzandlarga o`gitalar




«Qanday» organayzerini toʻldiring

Muhim muammoningechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.





qanday?



«Qanday?» organayzerni to'ldiring

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.





FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o`quv jarayonini bahs-munozarali o`tkazishda qo`llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o`rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog`ozga o`z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab k`rsating

M – ko`rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	O'.Hoshimov ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini belgilang.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab Ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	O'.Hoshimov asarlarining xalqchilligi nimalar bilan belgilanadi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab Ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

O'quvchilarni faollashtirish uchun savollar:

1. Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda yozuvchining mahorati nimalarda ko'rinadi?
2. Yozuvchi g'oyasini ochishda badiiy detalning o'rnini qanday?
3. Yozuvchi Ona siymosini qaysi asarlarida aks ettirgan?
4. "Dunyoning ishlari" qissasining yozuvchi ijodiy faoliyatini o'rganishdagi ahamiyati nimada?
5. Yozuvchi dramalarining ijtimoiy ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?
6. "Quyosh tarozisi" hikoyasining badiiy-estetik ta'siri nimalar bilan o'lchanadi?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q - men uchun yangi ma'lumot

- men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	B	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				

O'quvchilarda yuksak insoniy tuyg'ularni shakllantirishda badiiy asarlar tahlili va talqinidan foydalanish, o'quvchilar faolligini ta'minlashga, o'quvchi shaxsini, unga xos ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or metod va usullarni qo'llash ham yuqori samara beradi.

Umum ta'lim maktablarining beshinchi sinflari uchun mo'ljallangan dastur va darsligida O'tkir Hoshimov hayoti va ijodini o'rganish quyidagicha ifoda etilgan: O'tkir Hoshimov. "Dunyoning ishlari" qissasidan parchalar (4 soat)

O`tkir Hoshimov hayoti hamda uning “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan “Alla”, “Haqqush”, “Qarz”, “Gilam paypoq”, “Iltijo” hikoyalarini o`rganish uchun ajratilgan 4 soatni quyidagicha taqsimlash mumkin:

1-soat. O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida ma`lumot berish. Bunda o`quvchilarga adibning hayot yo`li, yozgan asarlari hamda yozuvchi hayoti va ijodini muhim jihatlarini yoritishda adibga zamondosh bo`lgan munaqiblarning adib haqida aytgan fikrlarini keltirish mumkin.

2-soat. “Dunyoning ishlari” haqida ma`lumot. Shu qissaga kiruvchi “Gilam paypoq” hikoyasi tahlili. Dars uchun ajratilgan bu soatda o`quvchilarga “Dunyoning ishlari” qissasi haqida ma`lumot berish. Ya`ni qachon yaratilgan, asar muallifining hamda boshqa adiblarning asar haqida yozgan fikrlari bilan o`quvchilarni tanishtirish. Asar yozuvchi nigohida qanchalik katta mazmun anglatishini o`quvchilarga tushuntirish. “Gilam paypoq” hikoyasi tahlili orqali esa, hikoyadagi bola hamda, adibning bolalik chog`laridagi xotiralarini taqqoslab, umumiy o`xshash jihatlarini aniqlash. Hikoyani o`zlashtirish jarayonida o`quvchilarni asar va unda ilgari surilgan umuminsoniy g`oyalar haqidagi fikrlarni bildirishga davit etish orqali, ularda mustaqil fikrni shakllantirish.

3-soatda. “Alla”, “Haqqush”, “Qarz”, “Iltijo” hikoyalari tahlili. Bu dars moboynda, hikoyalarni sodda va tushinarli tilda tahlil qilishdir. Tahlil qilish jarayonida o`quvchilar faolligini birinchi darajaga chiqarish, hikoyalarda tarannum etilgan onalar obraziga bola etiborini tortib, ulardagi onalarni farqli va o`xshash jihatlarini aniqlash. Chiqqan natijalar haqida, bahs-munozaralar tashkil qilish.

4-soatda. “Dunyoning ishlari” qissasiga kiruvchi barcha hikoyalar xususida umumiy suhbat uyishtirish. Bu dars jarayoni davomida O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi, “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan hikoyalar bilan tanishgan o`quvchi ongida umumiy fikrni shakllantirish. Hikoyalar


qahramonlari hamda ularda tasvirlangan ona obrazlarini bir-biriga bog`lab turuvchi xususiyatlar va asardagi o`quvchi ilg`ab olishi uchun ifodalangan tuyg`ularni yuzaga chiqarish. Dasturda biz o`rganmoqchi mavzu 4 soatga mo`ljallangan. Demak reja tayyor. Ana endi bu rejaning har birini alohida san`at asari darajasiga chiqarish uchun qanday vazifalarni bajarish kerak degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Yuqori sinfga endigina qadam qo`ygan 5-sinf bolasi, badiiy asar haqida endigina tasavvur hosil qilayotgani, bu olam uning uchun boshlang`ich sinfdagi kabi oddiy emas, balki anchayin murakkab ekanligini hisobga olgan holda rejalar tuzish. Bu rejalar asosida bola ongida bu sohaga mehr o`yg`atish, uni bu olamga yetaklab kirish o`qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Albatta, maktabda adabiyot darslarini tashkel qilishda, o`qituvchi shaxsi yetakchi o`rinlarni egallaydi. Bu borada so`z ketganda, quyidagi fikrlar ahamiyatlidir: "O`qituvchi shaxsiyatiga qo`yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o`zi o`qiyotgan predmetni chuqur bilishi, uning metodikasini chuqur o`zlashtirib olgan bo`lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o`quvchilarga yetkaza olishi, bolalarni shu predmetga bo`lgan qiziqishini oshiradi."¹⁸ Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, har bir dars jarayonini tashkel qilayotgan pedagog, avvalo, shu mavzu haqida mustaqil tayyorgarlikka ega bo`lishi, tashkillashtirilayotgan darsning hayoliy strukturasi yarata olishi darkor. Shundagina dars har tomonlama mukammalbo`lib, kutilgan natijani berishi mumkin.

5-sinflarga adib hayoti haqida ma`lumot berishdan avval, o`quvchilar uchun hali notanish bo`lgan adib shaxsiyatini gavdalantirish. Shularni inobatga olgan holda bir soatlik dars ishlanmasini shakllantirishga harakat qildik. O`quvchilarga biror bir dars jarayoni tashkel qilinar ekan bu avvalo, ma`lum bir maqsad yo`lida amalga oshiriladi. O`tkir Hoshimov hayoti va

¹⁸Pedagogika.KHK uchun darslik. T.; 2008-y, 28-29-b


ijodiga bag`ishlangan dars jarayonini tashkil qilishda quyidagi maqsadlarni bajarishni oldimizga maqsad qilib belgiladik.



Ta`limiy maqsad: O`quvchilarga o`zbek adabiyotining taniqli namoyondasi O`tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida bilimlarni berish. Adibning o`zbek adabiyoti xazinasiga qo`shgan hissasi haqida ma`lumot berish. O`quvchi ongida yozuvchi shaxsiyatini shakllantirib, asarlarida ilgari surilgan umumbashari g`oyalarga ularni oshno qilish.

Tarbiyaviy maqsad: Mavzu mohiyati bilan o`quvchilarni tanishtirish jarayonida, yozuvchining bolalik yillari o`tgan davr, urish daxshatlari, zamon qiyinchiliklari haqida adibning o`z hayoti haqidagi fikrlarini keltirib, ushbu xotiralarni bugungi kun bilan solishtirish. Yozuvchi yashagan davr va bugungi kunda kundan-kunga chiroy ochib borayotgan istiqbolli kunlarni taqqoslash orqali, bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash. Bundan tashqari asarlaridagi tasverlar, qahramonlar holatini to`g`ri tahlil qilib, ularning qalb kechinmalarini o`quvchi guvohligida sharxlash orqali, bola qalbida ona mehri, vatanga sadoqat, ona tabiatga muhabbat kabi tuyg`ularni shakllantirib, har tamonlama yetuk komil insonni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: mavzuni o`quvchilarga yetkazish moboynda, o`quvchi faolligini birinchi darajaga ko`tarib, asarlar tahlilida, ularni asardagi voqea-hodisalarga munosabat bildirishga undab, o`quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Mavzudan nazarda tutilgan maqsadlarni, dars bosqichlarining ketma- ketligi asosida amalga oshirilishi, darsni talab darajasida shakllanishini taminlaydi. Dars bosqichlarining ketma-ketligini quyidagicha sxemalashtirib olamiz.




Yuqoridagi jadval asosida: Tashkiliy qism orqali o`quvchilar bilan salomlashib, ularning davomadini aniqlagandan so`ng, o`quvchilar diqqatini dars jarayoniga jalb qilish uchun, kundalik, yurtimiz hayotida yuz berayotgan yangiliklar haqida suhbatlashib dars jarayoniga bog`lash.

Yangi mavzu bayoni: Otkir Hoshimov hayoti va ijodi hali o`quvchilarga notanish mavzu ekanligini hisobga olgan holda, sinf taxtasiga mavzu yozilgach, o`quvchilarga adibning hayot yo`li haqida ma`lumot beriladi. Bu jarayonda darsni adibning o`zi haqida yozgan xotiralaridan foydalanib boshlash, o`quvchini yangi darsni tez va oson o`zlashtirib olishini taminlaydi. Masalan: yozuvchi o`zi to`g`ilgan yillar bilan bog`liq voqealarni quyidagicha xotirlaydi: “Oyim bir gapni ko`p aytardi: Sen tug`ilganingda qiyomat qoyim bo`lgan edi. Lagerdagi o`ris xotinlar urush boshlanibdi deb yig`lagan, men ammanniing buzog`i, hayron bo`lgandim. Urush allaqayoqda bo`layotibdi-yu, bular nega dod solidi degandim. Keyin aqlim yetdi...”¹⁹ bu adib hayotiga tegishli bo`lgan tarjimayi holdan ko`rinib turibdiki, uning bolalik yillari ayni urush yillariga to`g`ri kelgan. Yozuvchining tug`ilib o`sgan joyi, ota-onasi haqida gap ketganda, adib “Mashaqqatli safar” tarjimayi holida otasi va onasi haqida shunday yozadi: “Otam eskicha alifbodagi kitoblarni ham, zamonaviy gazitalarni ham muttasil o`qib borar, kamgap, hiyla tajang, ammo nihoyatda haqparast odam edi... Onam- Hoshimova Hakima esa, otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Qo`shnining mushugi tug`sa ham joni achigandir deb achinar, ko`chada biror bola yig`lab o`tirgan bo`lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biror sabab bilan biz bolalarni qarg`asa, o`zi ham qo`shilib yig`lab yuborar, o`sha zahoti ko`nglimizni olishga harakat qilardi... onam ikki gapning birida maqol ishlatmasa turolmas, o`ta sodda, o`ta yuvosh bo`lgani bilan ertaklarni, afsonalarni koni edi...”²⁰ adibning tarjimayi holini bolalarga so`zlab berish, yaxshi tarbiyaviy samara beradi va yozuvchini ularga qalban yaqinlashtirishga xizmat qiladi. O`tkir Hoshimov ijodini o`quvchilarga so`zlab berish jarayonida, darslikda keltirilganidik yozuvchining ijodiy faoliyati 5-sinfadan boshlanganiga kuchliroq etibor qaratish darkor. Chunki, adib ijodini ayni o`quvchilar yoshida boshlaganini eslatish, o`quvchilar orasida badiiy ijodga moyili bor bolalarga ijobiy ta`sir etadi. 5-sinf o`quvchilari uchun dars jarayonini tashkil qilishda yozuvchi hayoti haqida, fikr yuritish bilan bir vaqtda, slaydlar

¹⁹Adabiyot. O`qituvchilar uchun uslubiy qo`llanma. 6-sinf.T.; Ma`naviyat. 71-bet

²⁰O`. Hoshimov. Notanish orol. T.; Yosh gvardiya, 1990-y, 6-7-b

asosida ushbu ma'lumotlarni o'quvchilarga ko'rgazmali qurol sifatida yetqazib borish, yetkazilgan ma'lumotlarni o'quvchi ko'proq esda saqlab qolishni ta'minlaydi.




Yuqoridagi jadval, raqamlarni mustahkamlash qismida, kompyuter va o'quvchilar orasidagi savol-javob tariqasida beriladi. Bu slaydni o'quvchilarga namoyish qilishdan oldin , shu ko'rsatilgan sanalarga bilan bog'liq voqealarga, adib hayoti haqidagi ma'lumotlarni yetkazish jarayonida alohida to'xtalib o'tiladi.

1441-yil 5-avgust...? →	Adib tavallud topgan sana
5-sinfda o'qib yurgan vaqtlaridayoq →	She'r mashq qila boshlagan
1991-yil... →	O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni
1996-yil... →	Mehnat Shuhrati ordenini olgan
2001-yil... →	Buyuk xizmatlari uchun ordenini olgan

O'tkir Hoshimovning „Cho'l havosi“ qissasini o'qib, yozuvchiga asar uni suyuntirib yuborganini xat qilib yozgan, Abdulla Qahhorning bildirgan fikrlarini o'quvchilarga havola etish, o'quvchini adib ijodiga qiziqishini yanada oshiradi. A.Qahhor shunday yozgan edi : “O'tkir ! „Cho'l havosi “ ni o'qib suyunib ketdim.

Birdan lov etib boshlangan ijoding kelajagi porloq boladi , qissa juda sof, samimiy, iliq , tabiiy , rohat bilan o‘qiladi.” Abdulla Qahhorning ushbu gaplari O‘. Hoshimovning ijod olamiga kirishida dalda bo‘lganini ta’kidlab, shu taassurot ta’sirida bir qator qiziqarli asarlar yozganidan o‘quvchilar xabardor qilinib, quyidagi jadvalni keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Bu va bunga o‘xshagan jadvallarni kompyuter orqali berilishi o‘quvchilarni adib ijodi yuzasidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish barobarida, shu asarlarni o‘qib o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Mustahkamlash orqali, darslikda berilgan ma’lumotlar bilan tanishgan o‘quvchiga, o‘rgangan narsalarini yana bir bora takrorlab olishi uchun munozarali savollar beriladi.

Siz buni bilasiz?

- O‘tkir Hoshimov haqida nimalarni o‘rgandingiz?
- Yozuvchi qachondan ijod qila boshlagan?
- O‘tkir Hoshimov birinchi asari orqali kimning e’tiborini qozongan?
- Siz ham she’rlar, hikoyalar yozasizmi, aytib bering?

Uyga vazifa qismida o`quvchilar uyda mustaqil o`zlashtirishlari uchun, adibning hayoti va ijodini o`qib kelish hamda mustaqil ravishda kichik bir asarcha yozib ko`rishni topshirish. Uyga vazifa qilib bu topshiriqni berish yozuvchi hayotidan ilhomlangan o`quvchini, qalam ushlashga undaydi. Bu esa, bola qalbida o`ziga bo`lgan ishonch tuyg`usini yuzaga chiqishiga olib keladi.

Professor Q. Yo`ldoshev haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Maktab adabiyoti ta'lim berish vositasi emas, balki tarbiyalash vositasidir. Aslida adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo`lmagan o`quvchidan ko`ra, ayrim adabiy ma'lumotlar tizimini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarni o`z tabiatiga singdira bilgan, sirdan araganda, nafaolday tuyuladigan o`quvchilar jamiyatimiz uchun ko`proq zarurdir... Badiiy adabiyot go`zal dunyo ichida go`zal ruhiy dunyo yaratishdir»²¹.

Adabiyot o`qitish metodikasi fani birinchi navbatda bo`lajak adabiyot o`qituvchilarining kasbiy shakllanishlari va dastlabki mahorat qirralarini o`zlashtirishlari uchun imkon beradigan fandır. Bu fan o`quvchi yoshlarning adabiy rivojidadagi o`ziga xos qonuniyat va qoidalarning anglab etilishi uchun omil bo`ladi. Uning o`qituvchi va o`quvchi hamkorligining asoslarini tushunishda muhim bo`g`in ekanligi ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyot o`qitish metodikasi fani bu fanning tarixi va rivojlanish bosqichlarini ko`rsatish, bu bosqichlarning har biriga xos bo`lgan asosiy unsurlarni tahlil qilish, badiiy asarni tahlil qilish va uni o`quvchilar tomonidan qabul qilinishidagi o`ziga xos xususiyatlarni ko`rsatish, badiiy asarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlariga e'tibor berish, ta'lim bosqichlarida faqat badiiy asarning o`zini emas, balki ularga bog`liq ravishda adabiy-nazariy tushunchalarni ham o`rganish zaruriyatini va yo`l-yo`riqlarni ko`rsatish, adabiyot darslarini

²¹ Yo`ldoshev Q. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T.: O`qituvchi, 1996.-30 -34- b.

tashkil etish, adabiyotdan sinfdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil etish, ularning ogʻzaki va yozma nutqlarini oʻstirish yoʻllarini koʻrsatish bilan kifoyalanmasdan oʻquvchilarning oʻz ustilarida muntazam ishlash, mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish yoʻllarini koʻrsatishi bilan ham muhimdir.

Adabiyot oʻqitish metodikasi fani mustaqillik tufayli oʻzining asl oʻzanlarini topib bormoqda. Endilikda adabiyot oʻqitish nazariyasi va amaliyotida bir xillikdan qochish, rang-baranglikka intilish tamoyillarining tobora kengroq tarzda koʻzga tashlanayotgani seziladi. Bu adabiy hodisalarga nisbatan estetik yondoshuvning ustivorlashib borayotganida, madaniy merosga nisbatan munosabatlarning haqqoniy lashayotganida, koʻplab adabiy hodisalarga nisbatan baholarning oʻzgarib, ularning oʻzlariga xos va oʻzlariga mos xususiyatlaridan kelib chiqilayotganligida namoyon boʻlmoqda.

Adabiyotshunos olim D.Quronov bu haqda yaxshigina kuzatishlarini eʼlon qilgan: «Koʻpincha el ichida ijodkorlar toʻgʻrisidagi turli-tuman mish-mishlarga, uzunquloq gaplarga duch kelinadiki, goho ularning bir-biriga tamomila zidligiyu aql bovar qilmas darajada ajabtovurligidan shoshib qoladi kishi. Albatta, bu nav mish-mishlar el nazdida katta obroʻ-eʼtibor topgan kishilar hayotiga qiziqishning zoʻrligidan yuzaga keladi. Biroq oʻylashimizcha, buni ommaviy qiziquvchanlikning oʻzi bilangina izohlash kam koʻrinadi. Zero, buning asosiy sabablaridan biri sifatida adabiyotshunosligimizda ijodkor biografiyasini oʻrganishga etarli eʼtibor berilmasligini koʻrsatishga moyilmiz. Hatto, sir emas, ijodkor biografiyasi bilan bogʻliq ishlarga mensimasdanroq, ilmdan yiroq hodisa sifatida qarash hollari ham yoʻq emas. Holbuki, adibu shoirlar hayotiga oid faktlarni toʻplashu ilmning chinakam «qora ishi» sifatida baholanishi kerak. Sababki, bu xil ishlar konkret ijodkorning shaxs va sanʼatkor sifatidagi tadrijini kuzatish yoki konkret asarning ijodiy tarixini, uni toʻgʻri talqin qilish uchungina emas, ijod psixologiyasi, ijodkor va jamiyat munosabati kabi qator umumestetik

muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi»²². Shunga qaramay, muallifning shaxsiyati uning asarlarida turlicha aks etishi mumkin. Ba'zan u ochiqdan ochiq ifodalansa, ba'zan muayyan vositalar orqali tasvirlanashi, ba'zi hollarda esa muallifning shaxsiyatini bevosita idrok etish ancha qiyin kechadi. Metodist olimlar to'g'ri ta'kidlashganiday, «har bir asar muallifning ma'naviy portretidir». Badiiy asarning ijodkor shaxsiyatining ifodachisi ekanligini anglab etgandan keyingina asar mohiyati ham, uning muallifning nuqtai nazarlari ham o'quvchiga to'laroq va teranroq tushuniladi. Shundagina muallifning adabiyotga, jamiyatga, shu xalq va millatga bo'lgan muhabbati va xizmatlari to'la idrok etiladi.

Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qaerlardan olinadi?

Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holda etib kelgan manbalardan olinishi mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir.

²² Quronov D. «Adabiyot nadir» yoki Cho'lpinnin mangu savoli. Adabiy-tanqidiy maqolalar.- T.: «Zarqalam», 2006,40-41-betlar.

II bob. O‘tkir Hoshimov asarlarini tahlil qilish

2.1. O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasini o‘rganish

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov shaxsi va “Dunyoning ishlari” asaridan olingan parchalar bilan o‘quvchilar 5-sinfda tanishishgan. Qissaning shirali tili, jozibali ifodasi va ona timsolining samimiy tasviri tarbiyalanuvchilar ruhiyatida iz qoldirmasligi mumkin emas. Darsning boshida o‘qituvchi o‘quvchilarga buni bir eslatsa, adib va uning asari haqda bilganlarini gapirib berishni so‘rsa, o‘quvchilar o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlashari, ruhan bugungi hikoyadan ham o‘shanday lazzatni tuyishga tashnalikni his qilishlari tabiiy. O‘qituvchi o‘z “hamkor”larini shu holatga tushirishi pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Muallimga oltinchi sinfda O‘. Hoshimov qalamiga mansub “Urushning so‘nggi qurboni” nomli hikoya ustida ish boshlashdan oldin uni bir o‘qib olishi lozimligini eslatib o‘tishning hojati bo‘lmasa kerak. Hikoyada muallif qiyinchilik, qashshoqlik inson ma‘naviyatini sinovdan o‘tkazuvchi bir vosita ekanini oddiy o‘zbek oilasi misolida, o‘ta samimiy tarzda namoyish eta bilgan. Asarni o‘rganishga kirishishdan oldin o‘qituvchi uning dasturdagi talqini bilan tanishishi, asarga qanday yondashishi lozimligini qat‘iylashtirib olishi zarur. Bu talqin: *“Asarda qiyinchilik inson ma‘naviyatini sinovdan o‘tkazish vositasi ekanining ko‘rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo‘qchilik onani boladan, og‘ani inidan sovutganligining ta‘sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma‘naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Hikoyadagi SHOikrom, SHone‘mat, Hadicha va Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi”* tarzida ifodalangan²³.

²³ Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9-sinfi uchun adabiyotdan o‘quv dasturi. Ma‘rifat, 4,7,11- oktyabr.

Hikoyaning darslikdagi to‘liq matnini o‘qib chiqish uchun 25–26 daqiqa kerak bo‘ladi²⁴. Mazkur hikoyani o‘rganish uchun dasturda belgilangan ikki soatning birinchisi hikoya matni bilan o‘quvchilarni tanishtirishga bag‘ishlanadi. O‘tkir Hoshimov shaxsi haqida darslikda berilgan biografik material 5-sinfdagi hasbi holning bir oz o‘zgartirilgan varianti. Bu kabi takrorlardan qochib, o‘qituvchi muallifning o‘z xotiralaridan foydalansa, dars samarasi ortishi aniq: *“Men 1941 yil 5 avgustda Toshkent biqinidagi Do‘mbirobod qishlog‘ida tug‘ilgan ekanman. Qishloqda, tag‘in, poytaxt biqinidagi qishloqda tug‘ilganim taqdirning hadyasi bo‘lsa ajab emas. Negaki, ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lishi kerak.*

Oilamizda bir qiz, to‘rt o‘g‘il bor edik. Men uchinchi o‘g‘il edim...

Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham birontamizni bir tarsaki urgan emaslar. Otani qattiq izzat qilishni onam o‘rgatganlar: «Hozir adang keladila, uyni supurib qo‘y», «Adangni jahllari yomon, tinch o‘tiringlar», «Adangni ketmoniga tegma», «Adangni soatiga qo‘l tegizma...» Bilmadim, balki hozirgi – zamonaviy oilalarga bizning holat «feodallik» bo‘lib tuyular. Ammo bizning oilamizda ota shaxsiga sig‘inish farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman...

*Etti yoshga to‘lar-to‘lmas, akalarimga ergashib, Do‘mbiroboddagi maktabga bordim. Bu – yetti yillik maktab edi. Uni bitirib, ancha naridagi «katta» maktabda o‘qishni davom ettirdim. «Ikki eshik orasi» romanida Muzaffarning «katta maktab»ga borishi, «Alvasti ko‘prik», Bo‘rijar manzaralari o‘sha palladagi kuzatuvlar hosili bo‘lsa ajabmas. Urushdan keyingi og‘ir yillar edi. O‘qituvchilarda ham, o‘quvchilarda ham allaqanday **fidoyilik** bor edi... O‘qituvchilarimiz biz uchun namuna edi. Kiyinishi ham, yurish-turishi ham... Ayni paytda domlalarimiz dars o‘ta turib, temir pechkaga o‘tin tashlab qo‘yishdan ham erinmasdi. «Alifbe»ni o‘rgatgan Ma’suda opani, faqat direktor emas, haqiqiy tashkilotchi bo‘lgan Odil akani, Zuhridin aka, Abduusmon aka, Qo‘chqor aka, Maryam opa, Abduvali aka degan o‘qituvchilarimni unuta olmayman.*

²⁴ S. Ahmedov va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. T.: Ma’naviyat, 2005. 158-b.

Birinchi «she'rim»ni 5-sinfda o'qiyotganimda yozganman. Erta bahor edi. Maktabdan kelayotsam devorning kungay etagida qoqigul ochilib yotibdi. Hayajonlanib ketib «Oltin tugmacha» degan «she'r» yozdim. CHamamda bu o'lgudek bema'ni she'r bo'lsa kerak. Esimda qolmagan. Faqat qoqigulni oltin tugmachaga o'xshatganimni unutmayman.

Urushdan keyingi avlodning bolaligi qanaqa o'tgan bo'lsa meniki ham shunday o'tgan. Men halol mehnati bilan kun ko'radigan oilada voyaga yetganman. Ota-onam haromdan va yolg'ondan hazar qilishni o'rgatishgan. Haliyam shu shior bilan yashayman. Farzandlarimga ham shuni uqtiraman.

Bolaligimdagi bir voqeani aytib beray. Uyimiz yonida jiydazor bo'lardi. U yerda men tengdosh o'rtoqlarim bilan sigir boqardim. O'sha paytda sigirni yog'och qoziq bilan arqonlab qo'yardik. Yog'och qoziqning yomon tomoni shundaki, qoqaversangiz, sinib ketadi. Bir kuni jiydazordan temir qoziq topib oldim, ozgina arqoni bilan. Qoziqni sigirimizning arqoniga bog'lab, uyga keldim. Yarim kechasi adam uyg'otdi. Qo'lida temir qoziq. «Qoziqni qaerdan olding?» dedi. «Topib oldim», deb javob qaytardim. «Qaerdan?» «Qiyshiq jiydaning tagidan!» «Jiydaning to'g'risi bo'lmaydi. Hammasi qiyshiq bo'ladi», dedi adam jahl bilan va «Qaerdan olgan bo'lsang, xuddi o'sha joyga olib borib tashla, hoziroq!» dedi. Yosh bolaman, yarim tun bo'lsa, chakalakzor. Yana Darhon anhorining lopillab turgan ko'prigidan o'tish kerak... Albatta qo'rqdim! Endi chiqib ketayotgandim, menga rahmi kelib, akam ergashmoqchi bo'ldi. «O'zi tashlab keladi!» dedi adam qat'iyat bilan. Amallab ko'priqdan o'tib, chakalakzor tomonga qoziqni uloqtirib, qaytib keldim. Labimga uchuhq toshganini hisobga olmaganda hech narsa bo'lmadi. Lekin uch-to'rt kundan keyin adam yana yoniga chaqirib oldida, bunday dedi: «Sen topib olgan qoziqqa birov molini boylagani aniq. Agar o'sha molni kimdir o'g'irlagan yoki mol adashib ketib qolgan bo'lsa-yu, qoziq bizning uydan chiqib, o'sha odam seni o'g'ri gumon qilsa nima bo'ladi? Biz nima degan odam bo'lamiz?» Mana shu voqea menga bir umrlik saboq bo'lgan.

Bolaligimda osmonga, yulduzlarga tikilishni yaxshi ko'rardim. Nazarimda har bitta yulduz meni o'ziga chaqirayotgandek bo'lardi....

Mening bobolarim o‘z davrining mashhur kishilari bo‘lishgan ekan. Jumladan, bobokalonim – otamning bobolari Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan ulug‘ shaxslardan bo‘lgan ekanlar.

*Toshkentda, Xalqlar do‘stligi saroyi bilan Oliy Majlisning muhtasham binosi o‘rtasida qadimiy obida – madrasa bor. Mana shu obidani 1832 yili Abulqosimxon eshon bunyod etgan ekanlar. Bu zukko inson o‘zbek tilidan tashqari arab, fors, rus va boshqa tillarni mukammal bilgan, Turkistonning CHor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashning g‘oyaviy rahnamalaridan biri bo‘lgan ekanlar. 1899 yili Sankt-peterburgda nashr etilgan **“Musulmonlikka oid materiallar to‘plami”** kitobida bunday deb yozilgan: “1892 yili vafot etgan Abulqosimxon eshonning Toshkent va boshqa shaharlarda o‘n minglab muridlari bo‘lib, ulardan kelgan mablag‘lar va vaqfyerlaridan tushgan daromadlar hisobidan eshon 30 ming oltin so‘mga madrasa qurdirgan. Bu madrasada 100 – 150 talaba tahsil olgan... Uning aholi orasidagi nufuzi nihoyatda baland bo‘lgan...” Madrasada faqat diniy emas, dunyoviy ilmlar ham o‘rgatilgan.*

...1892 yili Toshkentda vabo kasali tarqaladi. Ustiga-ustak kelgindilar zulmidan tinkasi qurigan xalq qo‘zg‘olon ko‘taradi. Tarixga “Vabo qo‘zg‘oloni” nomi bilan kirgan milliy-ozodlik harakati boshlanadi. CHor hukumati askarlari eski shaharga bostirib kirgan qirg‘in chog‘ida Abulqosimxon eshon muqarrar o‘limni bo‘yniga olib, o‘sha paytdagi Turkiston general-gubernatori Vrevskiy nomiga rus tilida ariza yozib, uning oldiga boradi. Bosqinchi askarlar Toshkentning mahalliy aholi yashaydigan qismidan (eski shahardan) olib chiqilmasa, oqibati ikkala tomon uchun ham fojiali bo‘lishini tushuntiradi. Gubernator buyrug‘i bilan “sallotlar” shahardan olib chiqiladi.

Keyin esa undan ham g‘aroyib hodisa ro‘y beradi... 1892 yil 30 iyung‘ kuni Abulqosimxon eshon Xo‘ja Ahror jome masjidida ming-ming odamlar orasida va‘z aytib, Toshkent ahli bir balodan qutilgani – bosqinchi askarlar shahardan olib chiqilgani bilan xaloyiqni qutlaydi va tag‘in bir ofatni – vaboni o‘zi bilan olib ketish niyatida ekanini aytib, Allohga iltijo qiladi. “Turkiston viloyatining gazetisi” muharriri N. Ostroumov “Fon Kaufman – Turkiston o‘lkasining tashkilotchisi”

nomli maqolasida bu hayrotomuz hodisa haqida shunday deb yozadi: “SHundan so‘ng munkillagan yoshida so‘nggi kunlardagi voqealardan (“vabo qo‘zg‘oloni”dan, demoqchi) qattiq larzaga tushgan muhtaram Abulqosimxon tezda – 4 iyulda vafot etdi. Qiziqarlisi shundaki, vabo barham topdi, toshkentlik sartlar buni uning vafotiga nisbat berdilar...”

Ajdodlarim to‘g‘risida bu qadar batafsil to‘xtalгимning sababi shundaki, ellik yoshga chiqqinumcha bobolarimning kim bo‘lganini bilmaganman. 1991 yil taniqli olim va jurnalist Sirojiddin Ahmedov shajaramiz to‘g‘risidagi ma‘lumotni qo‘limga topshirdi. Keksa yoshdagi qarindoshlarimdan bu dalillarni nega menga aytishmaganini so‘raganimda juda asosli javob eshitdim. Gap shundaki, agar bu gaplarni bilganimda qaerdadir aytishim yoki yozishim muqarrar edi. SHo‘ro siyosati esa “xalq dushmanlari”ga aloqador bo‘lgan odamni ko‘kartirmasligi aniq edi...”

O‘qituvchi bu asarni o‘rganishga ajratilgan ikki soatni yaxlitlashi, ya’ni ikkala akademik soatdan bir kunda qatorasiga foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. SHunda o‘quvchilarning matn o‘qishi davomida olgan taassurotlari, ko‘ngillarida paydo bo‘lgan iztirob, achinish singari hissiyotlar asar ustida ishlash jarayonida “issig‘ida” tilga chiqa boshlaydi. Ular tahlil mobaynida tug‘ilgan fikrlariga ruhiyatida paydo bo‘lgan tuyg‘ularni ham qo‘shib ifodalaydilar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘z-o‘zini taftish qilish demakdir. Bu yoshdagi o‘quvchilarning ruhiy kechinmalarini bir-birlaridan yashirmay, tortinmay, uyalmay ifodalashi ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Muallim hikoya matnini o‘zi o‘qib berishi shart va o‘qish jarayonida Shoikromning holati ifodalangan o‘rinlarni, uning fikrlarini toliqqan ovoz bilan, onaning so‘zlarini yumshoq, Xadichaning ovozini qalbakiroq ohangda, muallifning so‘zlarini qat’iyroq, SHone’matning ovozini dardli, siniq tarzda ifodalay olishga erishishi asarning ta’sir kuchini oshirishi tayin. SHOikromning pushtalar orasida mukka tushib yotgan onasini ko‘rgandagi holati va qichqirig‘ini o‘qish jarayonida tabiiy ifodalay olish uchun o‘qituvchi shu holatni to‘liq his qilishi, o‘zini shunga tayyorlashi lozim.

Ovoz chiqarib o'zgalar uchun o'qilayotgan asarning ta'sir kuchini boshqalar ham to'laligicha tuyishi uchun muallifning, o'qiyotgan kishiniing tuyg'ulari ovozi ifodalanishi kerak. Bu holatni sun'iy ravishda yasab bo'lmaydi. Yasalgan narsa ko'ngilniki emas va u o'zgalarga ham istalganidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Ko'ngilda notabiiy, nosamimiy tuyg'uga joy yo'q.

Hikoya o'qib bo'lingach, o'qituvchi bir oz tin olishi, tinglovchilarini kuzatishi lozim. Ular qanday holatdaligini, hikoya qahramonlari ruhiyati, kechmishi, dard-iztiroblari o'quvchilarga qanday ta'sir etganligini aniqlab olgani ma'qul. SHundan so'ng asar o'qishi jarayonida o'quvchilar ko'nglida paydo bo'lgan turli hislarni ularning tiliga olib chiqish uchun bir qator savollarni o'rta tashlash mumkin bo'ladi. Bu xil savollar darslikda bor. O'qituvchi o'zi yana qo'shishi ham mumkin.

“Asarning asosiy mazmunini so'zlab berish”²⁵ o'quvchi uchun zarur ish emas. Buning o'rniga o'quvchilar diqqati SHOikromlar ro'zg'orining fayzsizligini ifodalovchi lavhaga tortilgani ma'qul. O'quvchilarni ko'pdan beri dam olmagan, boshi tashvishlardan chiqmaydigan, yetishmovchiliklar iskanjasida qolgan kishi ko'ziga aslida g'arib va fayzsiz bo'lgan tirikchiligi nihoyatda xunuk ko'rinishi tabiiy ekanligini anglashga undash kerak: “Ro'zg'or jihozlarining SHOikrom ko'ziga bu qadar sovuq ko'rinishi sabablari nimada deb o'ylaysiz? Hamma ro'zg'orda bo'ladigan uy anjomlari nima uchun SHOikromning ko'ziga bunday ko'rinyapti? Gap ro'zg'or buyumlaridami yoki SHOikromning kayfiyatidami?” Hikoya matnida buning sabablari tasvirlanmagan. Lekin matn zamiridan, asardagi har bir detal tasvirida fayzsizlik sabablari ko'rinib turibdi. O'quvchilar ro'zg'orning bunday tarovatsizligiga SHOikromning xotini yoki uning o'zini aybdor deb qarashlari yoki boshqa bir buning sabab bilan izohlashlari mumkin. Muhimi, ular hikoya personajlariga befarq bo'lmasalar, o'zgalar tashvishini chekishga, birovlarining xatti-harakatlariga baho berishga urinsalar bas.

Tahlil ishtirokchilari hikoya qahramonining bezovta o'ylarga botganligi, uning ruhiy dunyosidagi notinchlik bilan tabiatdagi holatning: “*Yarim kecha bo'lib qolgan,*

²⁵ S. Ahmedov va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o'rta tahlim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. T.: Ma'naviyat, 2009. 166-b.

atrof jim-jit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. CHiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi... Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvillab qo'ydi" singari ichki bezovtalikning sabablarini topishga urinishlari zarur. SHOikromning ruhiy dunyosidagi notinchlik bilan itning ulishi, shamolning kelishi va yong'oq shoxlarining guvillashi orasida qanday aloqadorlik bo'lishi mumkin? Bu to'rt bezovtalik tongda yuz berishi mumkin bo'lgan falokatning xabarchisimikin? "Tanqidchi"lar qiynalib qolishganda shu kabi qo'shimcha savollar o'quvchilarning fikrlash jarayonini ma'lum o'zanga solib yuborishi mumkin.

Qahramonlar haqida o'ylash, mulohaza yuritish, ularning kundalik hayoti, kechinmalari, xatti-harakatlarini taftish qilish, baholash jarayonida o'quvchilar ham aqlan, ham ruhan faollashib, ulg'aya boradilar. O'quvchilar tahlil o'rniga asar voqealarini qayta hikoyalashga kirishib ketmasligi kerak. Ustoz asarning tahlili matndan estetik ta'sirlanish, tahlil asnosida insonni, uning ruhiy olamini teran his qilish – o'zlikni o'rganishga olib boruvchi ilmiy-pedagogik jarayon ekanini unutmashligi va buni o'quvchilariga ham bildirib qo'yishi foydadan holi bo'lmaydi.

E'tibor qilinsa, hikoya boshdan-oyoq mahzun ohangda bitilgan. CHunki asarda tasvirlangan taqdirlar, shu taqdirlar namoyon bo'lgan voqealar, ushbu voqealar ro'y bergan davr qayg'uga uyqash, urush davrining ohangi esa o'q va yig'i ovozigacha esh edi. Ma'lumki, o'q ovozi ham, yig'i tovushi ham shodlikni eslatmaydi, qayg'uni, g'amni yodga soladi, shularni keltirib chiqaradi. Ana shu hayotiy ohang hikoyaga ko'chgan. Ayni shu sifat uning ta'sir darajasini yanada oshirgan. Hikoyaning jiddiy tahlili o'quvchilarni hayotning nechog'lik murakkab ekanligiga, odam va uning amallari har qanday holatda ham to'g'ri bo'lavermasligi, u haqda fikr aytish, munosabat bildirish hamisha ham oson kechavermasligiga imon keltirishga majbur qiladi.

Asardagi Xadicha obrazining tabiatini baholash uchun o'quvchilar uning beshikda yotgan bolasiga, eriga, qaynonasiga munosabati, ro'zg'or tutumi haqida fikr bildirishlari lozim bo'ladi. O'shanda ham jizzaki, ayni vaqtda, eri va farzandlariga mehribon, tinib-tinchimas, ammo baxti qaro bu ayolning yaxshi yoki

yomonligi to‘g‘risida ham qat‘iy xulosa aytish mushkul. Og‘ir turmush, yo‘qchilik har bir odam uchun sinov, ba‘zilar uchun esa, to‘qchilik va farovonlik ham o‘ziga xos bir sinov. Hamma ham bu sinovlardan birday o‘ta olmaydi. Odamga xos asl fazilatlar ana shunday mushkul vaziyatlarda o‘zini ko‘rsatadi. Xadichaning shaxsini ochuvchi jihatlarning har biri savol-topshiriqqa aylantirilsa, uning fe‘l-atvori o‘quvchilar tomonidan ochilib, xatti-harakatlari, muomalasidagi yaxshilik va yomonlik sabablari anglashiladi.

Shoikrom timsolini Xadichadanda murakkab deyish mumkin. U – tabiatan fikr kishisi, mulohazali odam. Adib buni hikoyaning biror o‘rnida aytmagan bo‘lsada, tasvir maromi u haqda shu taxlit xulosa chiqarish imkonini beradi. O‘quvchilar oldiga ro‘zg‘orning fayzsizligi, kunlar isib ketgan bo‘lsada olib qo‘yilmagan sandal nima uchun aynan bugun uning g‘ashini keltirayotgani ham mulohaza qilib ko‘rilishi kerak. Uning o‘n kundan beri ukasining holidan xabar ololmay, uning og‘ziga bir kosa sut tutolmaganidan ezilishi, o‘zidan nafratlanishiga e‘tibor qilinishi kerak. Hikoyada o‘quvchilar diqqat qaratishlari lozim bo‘lgan yana bir muhim jihat bor: SHOikrom ovqat borligini bila turib nega ayolini onasiga ovqat berishga majbur qilmadi? Buning o‘rniga, onasidan ovqatni qizg‘angan xotinini tushinishga harakat qildi. Ona uydagi ahvolni biladi, o‘sha ovqatni yemasligi ham mumkin edi. Onasiga ovqat obkeltirish SHOikromning farzandlik burchi emasmi? Agar shunday qilolganda, uning ko‘nglidagi iztiroblar ham kamroq bo‘larmidi? SHu jihatlarning har biriga alohida munosabat bildirish tahlilni chuqurlashtirgan bo‘lardi.

Shoikrom – qahri qattiq ham, mehrsiz ham, yovuz ham emas. Xo‘sh, buning uchun urushni, qashshoqlikni ayblash kerakmi? Yoki u tabiatan irodasiz-u vaziyat qiyinlashganda sinovlardan o‘tolmayaptimi? Balki u vaziyatning qulidir? Vaziyatdan qanday chiqishni bilmagani uchun xayoliga o‘g‘ridan qasos olish fikri kelganida vujudi titrab ketsada, ahdidan qaytmagandir? Razolatga qarshi qabohat yo‘li bilan kurashmaslik kerakligiga aqli yetmagandir? SHuning uchun ham o‘zi bilmagan, istamagan, xayoliga ham keltirmagan holda qotilga aylangandir. Yana, o‘z onasining qotiliga... O‘quvchilar bu qadar murakkablik qarshisida qanchalar

ko‘p o‘yga tolsalar, shuncha yaxshi. Chunki ularda shu tariqa hayotiy qarash, nuqtai nazar shakllanadi.

Asardagi ona timsoli tahlil qilinayotganda o‘quvchilar Umri xola katta o‘g‘linig oldiga chiqishi va: *“payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, dedi”*,- deya o‘ziga gapirganday sekin qo‘shib qo‘yishi sababini o‘ylab ko‘rishlari lozim. Ular kampir nega qulupnayni o‘g‘lidan so‘rab qo‘ya qolmaganining boisini aniqlashga urinib ko‘rishlari kerak. Bor ovqatni o‘z onasiga berdira olmagan katta o‘g‘ildan ona kichik o‘g‘li uchun qulupnay so‘rashi mumkinmidi yoki yo‘qmi? O‘quvchilar onaning xatti-harakatlarini shu jihatdan baholashga urinib ko‘rishlari zarur. Bu masalaning bir tomoni.

Ayni vaqtda, xalqimizda har qanday sharoitda ham o‘g‘irlik yomon degan axloqiy qarash mavjud. Umri xola esa o‘g‘irlik qildi. Bemor o‘g‘li uchun bo‘lsa ham. Begonanikiga emas, o‘z o‘g‘linikiga bo‘lsa ham o‘g‘rilikka kirdi. O‘quvchilar, garchi bunday huquq hech kimga berilmagan bo‘lsada, onaning xatti-harakatlariga ma’naviy qozilik qilishga urinib ko‘rishsin. Umri xola boshqacharoq ish tutishi mumkinmidi? Asarning dasturiy talqinida aytilgan “Asl odam har qanday sharoitda ham ma’naviy pokligicha qolishi” haqidagi fikrga o‘quvchilar nima deyisharkin?

Ma’lumki, Allohning bandalari oldiga qo‘ygan ma’lum talablari bor. U bandalarini qaysidir fazilatlar uchun rag‘batlantiradi, qandaydir sifatlar uchun jazolaydi. O‘g‘rilik – illat. Yaratuvchi qudrat buni illat deb belgilab qo‘ygan va ming yillar davomida islomiy falsafa asnosida bu qarash bizning ma’naviyatimizga juda chuqur singib ketgan. SHu ma’noda, chinakam inson har qanday vaziyatda ham Allohning haqiqatlariga xiyonat qilmaydi. O‘quvchilar mana shu haqiqatlarni anglab yetsalar, odamning faoliyatini baholash nechog‘lik qiyin ekanini teranroq tushunishlari mumkin bo‘ladi. Ehtimol, o‘quvchilar asardagi fojia va baxtsizliklar sababchisi sifatida urushni ko‘rsatishar?! Balki kimlardir SHOikromni xasisligu, qasoskorlikda ayblar, ba’zilar betgachopar Xadichani ham fojia sababchisi sanar. Gap qotilni aniqlashda, aybdorni topishda emas. Asosiy maqsad hikoyada

tasvirlangan insoniy taqdirarga o'quvchilarning beparvo bo'lmasliklari va ularga astoydil munosabat bildirishlaridan iborat.

Muallif onaning qurbon bo'lishiga urush aybdor degan fikrni o'tkazishga moyil. Asarning nomlanishi ham shunga ishora. Ammo bugungi kun axloqi, badiiy matnga yangicha yondashish, tahlilda ijtimoiy yo'nalishga emas, balki estetik asoslarga tayanish tufayli asarning keyingi umri boshlanishi, undan adib o'ylamagan ma'nolarni kashf etish imkonini beradi. O'quvchilar ayni shu jarayonning faol ishtirokchilariga aylanishlari lozim.

Dars oxirida hikoyaning davomini yaratishni ixtiyoriy uy vazifasi sifatida topshirish mumkin. Xohlovchi o'quvchilar hikoya qahramonlarining keyingi hayotini qanday tasavvur qilishlarini qog'ozga tushirib kelsinlar. Bu topshiriq qobiliyatli o'quvchilarning tasavvurini boyitish va kengaytirish, ijodiy fikrlash ko'nikmasini o'stirish, hayotga, insonga munosabatini tiniqlashtirishga zamin tayyorlaydi

2.2. 5-sinfda O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini o'rganish

Darsning mavzusi; O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi. “Dunyoning ishlari” qissasi.

O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi bilan tanishtirish hamda “Dunyoning ishlari” asarining mohiyatini o'rganish.

Dars jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi.

1. O'quvchilarga O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi borasida bilimlarni berish.
2. O'quvchilarni “Dunyoning ishlari” asarining mazmuni bilan tanishtirish.
3. O'quvchilar tomonidan asarning mazmuni va mohiyatining chuqur o'zlashtirishini ta'minlash.
4. O'quvchilarda onalarning buyuk zot ekanliklari to'g'risidagi tushunchalarni qaror toptirish.

5. Ularda onalarga nisbatan cheksiz hurmatni uyg‘otish.

Dars jihozi; O‘tkir Hoshimovning portreti, adib ijodi hususida ma’lumot beruvchi jadval, “Dunyoning ishlari” asarining nusxasi.

Dars jarayonida qo‘llanuvchi metodlar; suhbat, savol-javob, “5x5x5”, “3x3”, “Tafakkur cho‘qqisi”

Darsning rejasi;

1. O‘tkir Hoshimov- zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk namayondalaridan biri.
2. “Dunyoning ishlari” asarining asosiy g‘oyasi.
3. Asarda onalarga xos bo‘lgan fazilatlarning yoritilishi.

1. Darsning borishi;

“4x8x4x8” metodi yordamida metodlarni o‘zlashtirish.

Sinf oquvchilari 4 nafardan bo‘lib 8ta guruhga bo‘linadilar. Mavzuning umumiy matni 8 qismga bo‘linib, har bir qism har bir guruhga beriladi va guruhlarga matni o‘rganib chiqish vazifasi topshiriladi.

Guruhlarga quyidagi dars matnining quyidagi qismlari tavsiya etiladi.

- | | |
|-----------|--|
| 1-guruhga | O‘. Hoshimovning hayoti va faoliyatiga oid ?ism. |
| 2-guruhga | Asarning “Oq, oydin kechalar” nomli bandi. |
| 3-guruhga | Asarning “Tush” nomli bandi. |
| 4-guruhga | Asarning “Gilam paypoq” nomli bandining 1-yarmi. |
| 5-guruhga | Asarning “Gilam paypoq” nomli bandining 2-yarmi. |
| 6-guruhga | Asarning “Alla” nomli bandining 1-yarmi. |
| 7-guruhga | Asarning “Alla” nomli bandining 2-yarmi. |

8-guruhga Asarning “Iltijo” nomli bandi

Matn guruhlar nomidan o‘rganilgandan so‘ng, guruhlar qayta tashkil etiladi. So‘ng har bir o‘quvchi o‘zi o‘zlashtirgan malumotlarni qolgan o‘quvchilarga hikoya qilib beradi. Shu tarzda mavzu matn o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi.

Savol-javoblar asosida suhbat tashkil etish. O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1. O‘tkir Hoshimov hayoti haqida nimalarni bilasiz?
2. Adib tomonidan qanday asarlar yaratilgan?
3. “Dunyoning ishlari” qanday janrda yozilgan asar sanaladi?
4. Ushbu asarning asosiy qahramonlari kimlar?
5. Asarda onalarga hos bo‘lgan qanday fazilatlar ifoda etiladi?
6. Asar bilan tanishish natijasida qanday taassurotlarga ega bo‘ldingiz?

II. “Qora quti” metodi yordamida o‘zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash.

Ushbu metod yordamida quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

O‘quvchilar juftlikka birikadilar va ularga adib O‘tkir Hoshimov hayoti haqida malumot beruvchi tushunchalarni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi. O‘qituvchi topshiriqni tekshiradi, uni to‘g‘ri bajargan juftlikning bir azosi o‘qituvchi vazifasini bajaradi. Navbatdagi bosqichda o‘quvchilardan adib tomonidan yaratilgan oltita asarning nomini kartochkalarga yozish so‘raladi. Topshiriqni o‘qituvchi qilib belgilangan o‘quvchi ustoz yordamida tekshiradi va yozuv tahtasiga quyidagi atamalarni yozadi: “Bahor qaytmaydi”, “Ikki eshik orasi”, “Nur borki soya bor”, “Tushda kechgan umrlar”, “Dunyoning ishlari”, “Urushning so‘ngi qurboni”. O‘qituvchi ro‘lini bajarayotgan o‘quvchi tengdoshlaridan ushbu so‘zlar nimalarni anglatishini so‘raydi.

III. 3x3 metodi yordamida o‘zlashtirgan bilimni mustahkamlash.

O‘quvchilarga quyidagi vazifalarni bajarish topshiriladi.

Berilgan tushunchalar ro‘yhatidan O‘ Hoshimov tomonidan yaratilgan asar nomini aniqlang va ularni ro‘yhatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang.

Tushunchalar: “Tushda kechgan umrlar”, “Jannat qidirganlar”, “Ufq”, “Ikki eshik orasi”, “Bahor qaytmaydi”, “ Yodgor”.

IV. “Tafakkur cho‘qqisi” metodi yordamida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

O‘quvchilarga mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlarni talab etuvchi quyidagi savollar beriladi:

1. Sizlar qanday fikrdasiz: nima uchun asar “Dunyoning ishlari”deb nomlangan.
2. Bolaning tushida onasining chiroq ko‘tarib yurganlarini ko‘rishi sizlarning fikringizcha nimani anglatadi.
3. Aytingchi allaning qudrati nimada?
4. Adibning “... dunyodagi hamma onalar yaxshi”degan so‘zlarning ma'nosini qanday izohlaysiz?

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning har tamonlama bilimni mustahkamlash va nutq faoliyatini o‘stirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish borasida pedagog texnologiyalarning ahamiyati katta.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim sohasida ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni ta’azo etadi. Pedagogik texnologiya- o‘zaro bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatuvchi bo‘limlar va tizimlar majmuasi. Bunday talim turlarida yuksak ahloqiy fazilatlarga, huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan shaxslarni kamol toptirishga yordam

beruvchi pedagogik texnologiyalar qo'llanadi. Hozirgi kunda fidoiy o'qituvchilarning ijodiy izlanishlari orqali bir qancha zamonaviy ta'lim usullari ishlab chiqildi. Bunday usullardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi o'z fanini puxta bilishi, ilor zamonaviy o'itish usullaridan yaxshi xabardor bo'lib, ulardan samarali foydalanish yo'llarini o'quvchilarning fanni o'zlashtirish samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Adabiyotdan dars beruvchi o'qituvchi tom manoda ijodkor bo'lishi shart. Zero, adabiyot darslari tarbiya-tashviot, ham notqlik, ham sanatkorlik, ham savodxonlikning mujassamlashtirgan ko'rinishi hisoblanadi.

5-sinf adabiyot darsida O'tkir Hoshimovning "Gilam paypoq" ("Dunyoning ishlari" asaridan bir navella) asarini o'rganishga 2 soat vaqt ajratilgan. Birinchi darsda asar ha'ida muhokama dars (interaktiv metod), ikkinchi darsda topshiri'lar bo'yicha "Onam bilan faxrlanaman" mavzusida insho yozish belgilangan. Oldingi darsda asar bilan tanishib chiqish uyga topshiriladi.

Dars rejasi:

1. O'quvchilarni 3 guruhga ajratib, asarni musta'il tahlil ilish. Birinchi guruh farzandning onaga bo'lgan muhabbatini qoralaydi. Ikkinchi farzandning onaga bo'lgan munosabatini oqlab chiqadi.

Uchinchi guruh asarning mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritadi.

Darsning maqsadi:

Ona va farzand munosabatini olib chiqish orqali o'quvchilarda ota-onaga nisbatan mehr-muhabbat, yoshi ulug'larga hurmat, ota-ona mehnatini ulug'lash:

Dars jihozi:

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari, “Ona”, “Ona va bola”, “Ona va zobit”, “Ona va buvi, nevara” suratlari.

Darsning tarbiyaviy vazifasi:

Asar qahramonlari orqali o‘quvchilarni o‘zbekona tarbiya namunalari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy vazifasi:

Lug‘at bilan ishlash, nutq o‘stirish

Rivojlantiruvchi vazifa:

Hayotning baland-past ko‘chalarida, yomon kunlarida mustaqil qadam qo‘yishda qoqilmaslikka, yanglishmaslikka o‘rgatish.

Dars turi:

Interfaol metoddan foydalanish.

Dars birinchi guruh “Qoralovchilar”ga so‘z berish bilan boshlanadi. Asardagi farzand obrazi o‘ta tipik obraz. Farzandning beg‘amligi, befarqligi, ohiri o‘ylamasdan ish qilishi; “Bir kun akalarim bilan qor o‘ynab terlab ketdim. Terlab turib muz edim. Kechqurun isitmam chiqdi” epizodlarida ko‘rinadi. Biz bu o‘rinda farzandning o‘z sog‘ligiga befarqligini qoralaymiz.

Asar boshida va nihoyasida farzand “har doim dam olishga borganimda onamga gilampaypoq olib kelardim” degan. Bu bilan onaning mehr-muhabbatini evaziga bir gilam paypoq berish to‘g‘rimi? Dunyoni bersak oz. Biz uni onaga qilgan xarajatlarida xasislikda ayblaymiz.

“Har yili dam olishga borganimda”. Bu o‘rinda ham farzand onasini birga olib ketishi mumkin edi. Yoki bir safar o‘zi bormay onasini davolovchi sanatoriyaga yuborishi mumkin edi. Bu xudbinlik emasmi? Faqat o‘zini o‘ylaydi.

O‘qituvchi: endigi navbat “Oqlovchilarga”.

Farzand onaning baxti, quvonchi. Uning uchun sogʻligidan kechishi. xatto jonidan kechishi mumkin. Farzand buni biladi. Afsuski, koʻp hollarda u bu narsaga tabiiydek, shunday boʻlishi mumkindek, boʻlishi ham kerakdek seziladi. Shuning uchun qadrini yoʻqotganida biladi. Kech tushunib etishiga sabab shu boʻlsa kerak.

“Dunyoda onalar bor ekan, hayot davom etadi” –deydi donolar. Bu faqat tugʻilish, yaratilish haqida emas balki “quyoshdan nur oladigan oy” kabi farzand ham ona tarbiyasidan, hayotidan ham saboq oladi. U oʻz qilmishiga pushaymonligi katta gap.

Hazrati Navoiy aytganlaridek:

Boshni fido ayla ato boshigʻa,

Jismni ?il sad?a ano qoshigʻa.

Tun-kuninga aylagali nur fosh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Biz farzandlar ota-onalarimiz mehnati oldida har qancha muruvvat koʻrsatsak oz. Shuning uchun muallif oʻzining kamtarligi bilan onaga qilgan muruvvatini ochiq bermagan deb oʻylaymiz.

Oʻqituvchi: Endigi navbat uchinchi guruhga.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati kitobxonga tushunarli, sodda yozilgan.

Hikoyada onaning jonkuyarligi, mehribonligi farzand uchun jonkuyarligi koʻrsatilgan.

Hikoyada tabobat ilmi va ziravorlar, oʻsimliklardan unumli foydalanish va tabiatning inomiga ehtirom bilan qarash koʻrsatilgan.

Bizga shu asar oʻtmishning ogʻir kunlarini insonlarning bir-birlariga mehr-oqibatini koʻrsatib bergan.

O‘qituvchi: Demak “inson aziz, odobi undan aziz” deb bejiz aytilmagan.

Bu hikoya timsolida o‘z harakat holatimizga ham tavsif beraylik. Mana 5-sinfga kelib o‘n ikki yoshga to‘ldingiz. Ota-ona roziligini olishga ulgurdikmi? Buning uchun yana nimalar qilishimiz kerak. Keyingi darsimizda “Men onam bilan faxrlanaman” mavzusida insho yozib kelishga tayyorgarlik ko‘ring.

Savol va topshiriqlar.

1. “Oq oydin kechalar” bobida tasvir etilgan oy, yulduzlar to‘la osmon manzarasini, supada o‘tirgan ona va bola holati, kayfiyatini ko‘z oldingizga keltiring. Ona oyga ?arab nimalarni pichirlaydi. Qanday ertak aytadi?

2. O‘sha damda o‘g‘il o‘zi uchun qanaqa yulduzni tanlaydi?

3. O‘g‘il ishdan kech qaytganida ona nega hamisha uyg‘oq bo‘ladi? O‘g‘il tush ko‘rganida nega o‘lgan onasi hamisha chiroq ko‘tarib yurgan bo‘ladi?

4. Onaning oyog‘i kasal bo‘lishi voqeasi haqida so‘zlang.

5. Barcha xalqlarning onalari aytgan allalar orasidagi o‘xshashlik sababi nimada deb o‘ylaysiz?

6. Onaning alla aytish paytidagi holati sizda qanday his uyg‘otdi.

2.3 Kasb-hunar kollejlari O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasini o‘rganish

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizda O‘tkir Hoshimov ijodiyotining mavzu doirasi nihoyatda keng qamrovli ekanligining guvohi bo‘lgan edik. Anashu keng qamrovli ijod sohibi bo‘lgan yozuvchi asarlarida yoshlar ma’naviyatini shakllantirishga xizmat qiladigan asarlar ahcha salmoqli o‘rinni egallaydi. Qolaversa kasb-hunar kollejlari adabiyot dasturidagi “Bahor qaytmaydi” qissasi ham mazmun mohiyatiga ko‘ra yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asardagi

ma'naviy qarashlarni o'quvchilar ongiga yetkazishda davr talabidan kelib chiqqan holda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ancha samara beradi.

15-mavzu	O'tkir Hoshimov. "Bahor qaytmaydi"
-----------------	---

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti - 2 soat	Talabalar soni – 25 ta
Mashg'ulot shakli	Informatsion bahs-munozarali dars
Ma'ruza rejasi:	<p>1. O'. Hoshimov hayoti va ijodi haqida ma'lumot.</p> <p>2.O'.Hoshimov hikoyalari da ma'naviy ruhiy olam talqinining o'ziga xosligi</p> <p>3.O'.Hoshimov qissalarida ma'naviy axloqiy muammolarning badiiy talqini.</p> <p>4.Yozuvchi romanlarida inson qismati, ma'naviy va ruhiy muammolar talqini.</p>
<p>Ma'ruza mashg'ulotining ta'limiy maqsadi:</p> <p>tarbiyaviy</p> <p>rivojlantiruvchi</p>	<p>O'.Hoshimov hayoti va ijodi haqida bilim berish.</p> <p>O'.Hoshimov asarlari tahlili orqali yurtparvarlik, erkparvarlik tuyg'ularini shakllantirish</p> <p>O'.Hoshimov asarlarida ma'naviy-ruhiy olam muammolarining badiiy-estetik talqini.</p> <p>Romanlarida tasvirlangan urush mavzusi va uning insoniyatga yetkazgan ma'naviy-ruhiy asorati.O'.Hoshimov talqinida Ona obrazi.</p>
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>1.O'.Hoshimov hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.</p>	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <p>1.O'.Hoshimov hayoti va ijodi haqida ma'lumotladilar.</p>

<p>2.O'.Hoshimov hikoyalarida ma'naviy ruhiy olam talqinining o'ziga xosligi haqida ta'lim berish.</p> <p>4.O'.Hoshimov qissalarida ma'naviy axloqiy muammolarning badiiy talqinlari.</p> <p>5.Yozuvchi romanlarida inson qismati, ma'naviy va ruhiy muammolar talqini.</p>	<p>2.O'.Hoshimov hikoyalarida ma'naviy ruhiy olam talqinining o'ziga xosligi haqida bilimga ega bo'ladilar</p> <p>4.O'.Hoshimov qissalarida ma'naviy axloqiy muammolarning badiiy talqinlarini bilib oladilar.</p> <p>4.Yozuvchi romanlarida inson qismati, ma'naviy va ruhiy muammolar talqini haqida ma'lumot oladilar.</p>
<p>Mavzuni o'zlashtirish uchun zaruriy bo'lgan adabiyotlar ro'yxati:</p>	<p>1.Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq, 2009.</p> <p>2.Karimov N. va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'qituvchi. 1999.</p> <p>3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: O'qituvchi 2004.</p> <p>4.Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006.</p> <p>5. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. –T.: “Tamaddun”, 2010.</p> <p>6.Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. –T.: Fan, 2006.</p>
<p>Ta'lim berish usullari:</p>	<p>Ma'ruza, “Qanday?” texnikasi, “FSMU” uslubi, “Insert”.</p>
<p>Ta'lim berish shakllari:</p>	<p>Jamoa bo'lib ishlash</p>

Ta'lim berish vositalari:	O'quv qo'llanma, komputer, proektor, tarqatma material, slaydlar
Ta'lim berish sharoiti:	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona
Monitoring va baholash:	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq

1.2. "O'.Hoshimov hayoti va ijodi" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1.Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2.Adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtirish (2-ilova)	Yozib oladi
	1.3.Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (3- ilova)	
2-bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1.Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova) Ma'ruza bo'yicha vizual materiallar taqdim qiladi (5-6-ilova). «Qanday?» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi	Yozadi, savolga javob beradi.

	<p>savol bilan murojaat qiladi: “O‘.Hoshimov asarlarining o‘ziga xosligi nimada? ”.</p> <p>2.2.Ma'ruza bo‘yicha «Qanday?» usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: “O‘.Hoshimovning qaysi hikoya qissalarini bilasiz?”.</p> <p>2.3.Mavzu rejasining to‘rtinchi punkti bo‘yicha ma'ruza qiladi. Reja yuzasidan “Klaster” metodidan foydalanib topshiriq beriladi.</p>	<p>Tinglaydi, savolga javob beradi.</p> <p>Tinglaydi, topshiriqni bajaradi</p>
	<p>2.4.O‘.Hoshimov hayoti va ijodini yoritish «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qaydarajada to‘g‘ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar.</p> <p>Guruhlarda ishlaydilar.</p>
<p>3- bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1Mavzu bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi.</p> <p>3.2.Talabalarning baholash mezonlarini e'lon qiladi.</p> <p>3.3.O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar Yozib oladi Javob yozadi</p> <p>“Insert” usulida jadvalni to‘ldiradi.</p>

	3.4.Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e‘lon qiladi va “Insert” usulida jadvalga mustaqil ta‘limga tayyorgarlik ko‘rishlarini so‘raydi.	
--	---	--

Darsning uchinchi bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarni yangi mavzu va mavzuning rejasi bilan tanishtiradi. Yangi mavzuni o‘qituvchi multemidiyali slayd, ko‘rgazmali qurollar orqali bayon qiladi. Yangi mavzuni tushuntirishda ma‘ruza, “Qanday?” texnikasi, “FSMU” uslubi, “Insert”metodlardan foydalanadi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal yeishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi. Texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Interfaol metodlar ta‘lim jarayonida qatnashayotgan har bitta o‘quvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qitilmaydi, balki ularning o‘zlari o‘qituvchi bilan birgalikda muayyan yo‘nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishadi. Bu hol bolalarda erkin fikrlash, mustaqil izlanishga rag‘bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta‘lim jarayoni qatnashchilari o‘zaro bemalol tortishadilar, o‘quv materialini buyurilganiday emas, balki o‘zlari xohlaganiday erkin o‘zlashtiradilar. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, interaktiv metodlarning eng asosiy belgilari: o‘quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga urinishlari va ta‘lim jarayoni qatnashchilarining, albatta, kichik guruhlariga bo‘lingan holda ishlashlaridir. O‘quv topshiriqlarining alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a‘zolariga berilishi o‘quvchilarda jamoa tuyg‘usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

**O‘TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” QISSASINI
O‘ZLASHTIRISH BO‘YICHA BLUM TAKSONOMIYASINI**

QO‘LLASH NAMUNASI

<i>Taksonomiya bosqichlari</i>	<i>Savol va topshiriq namunalari</i>
<i>Bilim</i>	<p>Asar nomini izohlang.</p> <p>Qissaning bosh qahramonlarini sanang.</p> <p>Asarda tasvirlangan voqealarni bayon eting.</p> <p>Qissa qachon yozilgan, muallifi kim?</p>
<i>Tushunish</i>	<p>Qissa shunday tugallanganligi sababini sharhlang.</p> <p>Anvar timsolining asar syujetidagi o‘rnini tushuntiring.</p> <p>“Ot allanimaga qattiq qoqilibdida, qop-qorong‘u jarlikka munkib ketibdi. U otni bo‘ynidan mahkam quchoqlab olganча shuvillab pastga tushib ketayotganmishu, erga hech etmash” tasvirini tushuntiring.</p> <p>Shundan keyin nima bo‘lishini chamalang.</p> <p>Bu tasvir nimani anglatishini o‘z so‘zlaringiz bilan ayting.</p> <p>Qissaning qisqacha mazmunini bayon qiling.</p>
<i>Qo‘llash</i>	<p>Asar voqealarini o‘zingizga nisbat berib ko‘ring.</p> <p>Qissadagi voqealar bugun qanday kechgan bo‘lardi deb o‘ylaysiz?</p>

	<p>Alimardon bilan suhbatlashib ko‘ring.</p> <p>Anvardan intervyu oling.</p>
<i>Tahlil (analiz)</i>	<p>Alimardonning xatti-harakatlari sababini izohlang.</p> <p>Muqaddamning nega shunday yo‘l tutganligini sharhlang.</p> <p>Anvar bilan Alimardonning qizga va bir-biriga munosabatini o‘zaro solishtiring.</p> <p>Timsollarning tabiati bilan ularning xatti-harakatlarini qiyoslang.</p> <p>Tarixiy sharoit qahramonlar tabiatiga qanday ta'sir qilganini tushuntiring.</p>
<i>Umumlashtiruu (sintez)</i>	<p>Ushbu qissa syujetini tahrir kiriting.</p> <p>Asar tugallanishini o‘zgartiring.</p> <p>O‘zingizni qahramonlarning o‘rniga qo‘yib ko‘ring.</p> <p>Qissa mavzusi bo‘yicha she'r yoki hikoya yozing.</p>
<i>Baholash</i>	<p>Asar yakunini baholang.</p> <p>Qissaga taqriz yozing.</p> <p>Asar qahramonlarini oqlang yoki qoralang.</p> <p>Qissa xotimasi hayotiy yoki aksinchaligini isbotlang.</p>

Epik asarlarni o‘rganishda noan'anaviy usullardan biri o‘quvchilarga rollar berib, ijro mahoratlarini, nutq va ishtirok me'yorlarini belgilab olish. Unda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi.

<i>Rollar</i>	<i>Қилинадиган ишлар</i>
Топаг'он	О'rganilayotgan matndan badiiy asar mohiyati va qahramon tabiati aks etgan kalit so'zlarni topadi va tanlaydi
Izquvar	Asar bosh qahramoni va etakchi obrazlarning xatti-harakatlari va o'ylarini turli chizma, sxema, grafik vosita va jadvallar vositasida ko'rsatmali aks ettiradi
Tadqiqotchi	Kalit so'zlar va chizmalarga tayanib bosh qahramonning psixologik portretini yaratadi va uning xatti-harakatlari sababini aniqlaydi
Aloqachi	Badiiy matn bilan hayot orasidagi aloqani topadi, adabiy qahramonni bugunning nazari bilan baholaydi
Ajratuvchi	Faqat shu asarda uchrab, uning o'qishligini ta'minlagan noyob so'z, birikma va ifodalarni topadi va guruh a'zolari e'tiboriga havola qiladi
Bezakchi	Bosh qahramon va etakchi timsollar, ularning xatti-harakatlari, asar voqealari kechgan sharoitni aks ettiruvchi rasmlar chizadi
Taqdimchi (yetakchi)	Vaqtни nazorat qiladi, guruhda material to'plash va muhokama qanday borayotganini kuzatadi. Guruh nomidan chiqish tayyorlaydi, natijani taqdim etadi.

Ta'kidlash joizki, interfaol usullarni an'anaviy ta'lim metodlariga mutlaqo qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ular bir-birlarini inkor etadigan, biri boshqasiga halaqit beradigan emas, balki bir-birini to'ldiradigan ta'lim usullaridir. O'qitish jarayonida yo an'anaviy, yoxud interaktiv metoddan birini tanlash kerak qabilida yondashish ma'rifiy jaholatdan boshqa narsa emas. Ta'lim metodlari son-sanoqsiz va ularning

har biri o'zi qo'llanilayotgan vaziyat uchun betakror ahamiyatga egadir. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan biror metodni hamisha samara keltiradigan universal usul deb aytish metodika ilmi va amaliyotidan bexabarlikdir. Ta'limning an'anaviy metodlarini interaktiv usullar bilan bir dars ichida ham birgalikda ishlatish mumkin. Ularni bir-biriga qarshi qo'yish pedagogik mantiqqa tamomila ziddir.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar kollejlarda adabiyot bo'yicha o'qish va o'qitishni interaktiv metodlar asosida yo'lga qo'yish milliy ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'taradi, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirib, ularni ko'nikma va malakalar holiga keltirishni tezlashtiradi. Eng muhimi, interfaol usullar kollej o'quvchilarining ma'naviyati shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadiki, bu millat yoshlari shaxsiyatining barkamolligiga xizmat qiladi.

III bob. 3-bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi

3.1.6 sinfda “Urushning so‘ngi qurboni” hikoyasini o‘rganish yuzasidan dars ishlanmasi

Bugungi kunda talim sohasida “Global talim” iborasi o‘z tasini ko‘rsatib, talim sohasini rivojlanishida o‘zining salmoqli o‘rnini egallab turibdi. Bunda davlat talim standartlari talablarining aynan innovatsion texnologiyalar orqali to‘la amalga oshirishi nazarda tutiladi.

Bu texnologiyalarni aynan adabiyot darslariga tatbiq qilish juda o‘rinli bo‘lib, bugungi kunda o‘zining samarasini ko‘rsatib kelmoqda. Psixologik nuqtai nazardan olib qaraganimizda ham bu texnologiyalarning talimni o‘zlashtirishda o‘quvchi ongida ro‘y beruvchi salbiyliklarning oldini olishda, talimni benuqson amalga oshirishda ahamiyati kattadir. Bugungi kun avlodlarining aqliy rivojlanishi shiddatli tarzda ilgarilab borayotgani hech kimga sir emas.

Shu boisdan ham talim aqliy rivojlanishdan borgandagina yoshlarga o‘zining samarali tasirini qo‘rsata oladigani bizga malumdur.

Shularni nazarda tutgan holda o‘z darslarimizga bu texnologiyalarni to‘la joriy etishimiz bugungi kunning talabi ekani xaqiqatdir. Bularni biz adabiyot darslarida yangi mavzuni o‘quvchi ongiga singdirish maqsadida ham, o‘tilgan mavzuni mustaxkamlash maqsadida ham sinab ko‘rishimiz mumkin. Jumladan 6-sinf o‘quvchilariga O‘tkir Xoshimovning “Urushning so‘ngi qurboni” hikoyasi o‘zlashtirish maqsadida ko‘plab zamonaviy dars o‘tish usullaridan foydalanio‘ katta ahamiyatga egadir. Bu hikoya 6-sinf o‘quvchilariga 2- chorakda o‘tiladi. Dasturda hikoyani o‘tish uchun 2 soat ajratilgan bo‘lib, ularning 1-soatini o‘tishda odatdagidek hikoya matni o‘quvchi tomonidan o‘qib chiqiladi. Bunga 23-25 daqiqa sarflanadi. Hikoyani o‘rganish uchun dasturda belgilangan ikki soatning birinchisi avval darsni so‘rash, adib shaxsiga doir darslikdagi malumotlar qanchalik o‘zlashtirilganligini va 5-sinfda o‘qilganlar bolalar xotirasida nechog‘lik

qolganligini anglash hamda hikoya matni bilan o'quvchilarni tanishtirishga bag'ishlanadi. O'qituvchi bu asarni o'rganishga bag'ishlangan ikki soatni yaxlitlashi ham mumkin. Shunda o'quvchilarning matn mutoalasi davomida olgan taasurotlari ko'ngillarida paydo bo'lgan iztiroblari, achinishlari asar ustida ishlash jarayonida tilga chiqa boshlaydi. Bolalar tahlil davomida tug'ilgan fikrlariga ruhiyatida paydo bo'lgan fikrlarini, tuyg'ularini ham qo'shib ifodalaydi.

Olgan bilim va ko'nikmalarini baholash, asosiysi ularni mustahkamlash maqsadi hikoya uchun dasturda ajratilgan ikki soatda asosiy o'rinda tutadi.

Bu maqsadga erishish yo'llari quyidagi dars ishlanmasida interfaol usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mavzu: O'tkir Hoshimovning "Urushning so'ngi qurboni" hikoyasi

Maqsad :

- "Urushning so'ngi qurboni" hikoyasi qahramonlarining insoniy va g'ayriinsoniy, bir-biriga zid bo'lgan xarakterlarini tahlil qilish, munosabat bildirish orqali o'quvchilarning ijobiy va mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish;

- Hikoya qahramonlari xarakterlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar manaviyatini oshirish;

Jihozlar: O'tkir Hoshimov portreti, oq qog'oz, turli rangdagi markerlar

Reja:

1. O'quvchilarga tushuntirish (5min)

2. Aqliy xujum "Guruhlarda ishlash", tarqatma materiallaridan foydalanish (30min).

3. Baholash va uyga vasifa berish (10min)

Dars jarayoni

Avvalambor o‘qituvchi tamonidan mavzuni esga solish maqsadida takrorlanadi va muammoli savollar o‘rtaga tashlanadi.

Aqliy hujum:

Nima uchun adib hikoyasini “Urushning so‘ngi qurboni” deb nomladi.

Hikoyaning nomlanishiga, voqealar rivojiga faqat urush sababchimi?

Bo‘lib o‘tgan fojiga sizningcha kim aybdor?

Shu tariqa savollar tashlash orqali sinfda jonli vaziyatning vujudga kelishiga erishamiz va har bir o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini oshiramiz. Ushbu savollarga to‘la javob olish, sinfda jonli vaziyatni vujudga keltirishimiz bizning hikoya uchun ajratilgan birinchisida qilgan mehtimizning qay darajada bo‘lganligiga bog‘liqdir. Asardagi ona timsoli tahlil qilinayotganda o‘quvchilar Umri xola katta o‘g‘lining oldiga chiqqani sababini, uning “ Payshanba kuni tabibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, dedi” deb o‘ziga gapirgandek sokin qo‘shiq kuyishi, qulupnayni o‘g‘lidan so‘rab qolmagani boisini aniqlashga urinib ko‘rinishlari kerak. Umri xola aslida bor ovqatni onasiga berdira olmagan o‘g‘ildan ukasi uchun bo‘lsa-da qulupnay so‘rashi mumkinligi yoki yo‘qligi, haqida bolalar o‘ylab ko‘rishlari, onasining xatti-harakatlarini shu jihatdan baholashga urinishlari kerak. Ayni vaqtda, xalqimizda, deyarli barcha milatlarda har qanday sharoitda ham o‘g‘irlik yomon ahloqiy qarash mavjud. Umri xola esa o‘g‘irlik qildi. Mayli, bemor o‘g‘li uchun bo‘lsa ham. O‘quvchilar onaning xatti-harakatlariga ma’naviy qozilik qilib ko‘rsinlar. Shunda inson faoliyatini baholash nechog‘lik qiyin ekanligini, inson faoliyatini baholash nechog‘lik qiyin ekanligini, inson degan mavjudodni anglash o‘zi bo‘laveradigan yumush emasligini teranroq tushunishlari mumkin. Ehtimol, o‘quvchilar asardagi baxtsizliklar sababchisi sifatida urush va urushning yo‘qchilik, qashshoqlik, mehirsizlik singari oqibatlarini ko‘rsatar. Balki ayrim o‘quvchilar shoikromni xasislik-u, qasoskorlikda ayblar ba'zilar betakror Hadichani ham fojia

sababchisi deb anglar, gar qotilnitonishda emas hikoyada tasvirlangan chinakam inson taqdirlarga beparvo bo‘lmaslikda ularga astoydil munosabat bildirishda. Shuni aytish joizki muallif o‘z asarida onaning so‘ngi qurbon bo‘lishiga urush aybdor degan fikrni o‘tkazishga moyil. Asarni nomlashni ham shunga ishora qiladi. Ammo bugungi kun ahloqi, badiiy matnga yangicha yondashish imkoniyati tahlilda ijtomoiy yo‘nalishga emas, balki muayyan asarlarga tayanish tufayli asardan yangi manolarni kashf etish mumkin. O‘quvchilar ayni shu jarayoning faol ishtirokchisiga aylanishlari kerak. Bundan tashqari mavzuni mustaxkamlash maqsadida sinfda guruhlar bilan ishlash ham o‘zining samarasini beradi.

Sinf to‘rtga bo‘linadi. Guruhlarga bittadan batman qog‘oz beriladi. O‘quvchilar batman qog‘oziga asar qahramonlari tilidan aytilgan bitta jumla gap yoziladi. Ular esa beshtadan jumla yozishlari kerak bo‘ladi. Jumlalarning har biri bitta qahramon tilidan keltirilgan bo‘lishi kerak va har bir qator orasida joy ochiq qoldiriladi. Asar qahramonlari tomonidan aytilgan jumlar yozilgan qag‘ozlarni guruhlar bir-biri bilan almashishadi. Vazifa shuki, ochiq qoldirilgan joylarga bu jumla qaysi qahramon tilidan aytilganligi, yani aytilgan jumla egasining nomi qavs ichiga yoziladi.

1-guruh savollari

1. Ziqna bo‘lmay o‘l, azaldan qurumsoq edi, zamon o‘g‘irlashgan buyon battar bo‘ldi. (Shoikrom).

“Ovozi o‘chsa qaniydi, to‘qqiz kechasida jin tekkan bunga (Hadicha)

“ Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydida” (Umri hola).

“ Ertalab chiqib ketsang, yarim kechasi kelasan. Bu kunlar o‘tib ketadi. (Umri hola).

“ Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o‘ladi!” (Shoikrom).

guruh savollari

“ Nega menga o‘dag‘aylaysiz” (Hadicha)

“ Tuzukmi ertalab xabar olaman(Shoikrom)

“ Padariga la'nat shunday turmushning” (Shoikrom)

“Men usta xo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim etmaydimi?!” (Xadicha)


“ Sut ichmay, zahar zahar ichsang bo‘lmasmidi?!”(Shonemat)

Shu tariqa jumlar keltirilgan qag‘ozlarni guruhlar bir-birlari bilan almashishadi. Guruhlarda ishtirok etgan bolalar qay darajada ishtirok etishiga qarab odilona baholanadi. Shu tariqa sinfda jonli muhit yuzaga keladi. O‘quvchilarning asar qahramonlarining harakterlarini eslab qolishlarida bu juda ham qo‘l keladi va o‘z samarasini ko‘rsatadi. Bunday interfaol usullar bugungi kunda juda ko‘p bo‘lib, bu usullarni o‘zimiz ham ishlab chiqishimiz va jarayoniga tadbiiq etishimiz mumkin. Bunday usullarning qanchalik qulay va samarali ekanligini ingliz olimi

I. Venn diagrammasi orqali ko‘rsatib beradi.

O‘quvchilarga Venn diagrammasi chizilgan qag‘ozlar tarqatiladi. Bunda ham guruhlar bilan ishlash mumkin. Har bir guruhga beshtadan diagramma chizilgan qag‘oz tarqatiladi. Ushbu usulning sharti quyidagicha; Diagrammaning birinchi tomoniga malum bir asarning o‘ziga xos tarafi yoziladi, ikkinchi tamoniga esa keyingi malum bir asarning birinchi asarga o‘xshamagan, unga qarama-qarshi bo‘lgan o‘ziga xos tarafi yoziladi. O‘rtasiga esa ikkala asarning o‘xshash jihatlari, qarama-qarshi bo‘lmagan fikrlar yoziladi.

Masalan, “ Dunyoning ishlari” , “Urushning so‘ngi qurboni” asarlari



Farqli jihati: “Dunyoning ishlari” qissasida “Alla”, “Haqqul”, “Qarz”, “Gilam paypoq”, “Iltijo” kabi boblar o‘ziga xos har xil syujetlardan iborat bo‘lib, ayrim voqealar tasvirlanadi....

Farqli jihati: “Urushning so‘ngi qurboni” hikoyasi bitta syujetga ega bo‘lib, voqealar rivojidan so‘ng fojiaiy tus oladi...

O‘xshash tomonlari: Ona timsolining samimiy tasvirlanganligi.

Bu interfaol usullarni o‘tkazish uchun darsning 30 daqiqasi ajratilgan bo‘lib, bu vaqt ichida salmog‘iga qarab bir yoki ikkitasinigina qo‘llashimiz va tahlil qilishimiz mumkin.

► “Sinektika” atamasi “xilma xil elementlarning birlashishi” degan ma’noni anglatadi.

► S
i
n
e

U
i
l
g
,

Синектика методи

Синектика (ингл. *Synectics* — «турли жинсдаги элементларни ўзаро боғлаш») — У.Ж. Гордон томонидан таклиф этилган жамоа интеллектуал фаолиятининг ижтимоий-психологик мотивациясига асосланган тадқиқот методикаси бўлиб, «ақлий ҳужум» методининг ривожланиши ва такомиллашиши ҳисобланади.



Синектиканинг асослари

Синектика Уильям Гордоннинг «ақлий ҳужум»ни такомиллаштиришига уриниши сифатида дунёга келган.

У билди орқали ҳам ижодий жараён шаклланиши мумкин, деган тахминни илгари сурган.


Синектика методининг моҳияти масалаларга аналогия ва тегишли аналоглар танланиши орқали топилган ечимларида акс этади.



АНАЛОГИЯ (грек. мувофиқлик) — предмет билан ҳодиса ўртасидаги ўхшашлик.

МАВЗУ: Ў.ҲОШИМОВНИНГ “УРУШНИНГ СЎНГГИ ҚУРБОНИ” ҲИКОЯСИНИ “СИНЕКТИКА” МЕТОДИ АСОСИДА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ





Бош муаммо :
Ҳикоядаги ўғил ўз онасининг қотилими



◉ Муаммолар

Ўғилнинг онага
меҳрсизлиги
сабаблари

Ака- ука
ўртасидаги
совуқчилик




Муҳокама жараёни



◉ Муаммоларни очиб берувчи фаразлар иштирокчилар томонидан айтилади:

- ◉ - Уруш даври тақчиллиги. Шоикром ўз оиласини боқиши керак.
- ◉ - Онаси укаси билан яшайпти, онасига меҳрибонлик кўрсатиш уканинг вазифаси.
- ◉ - Онаси фақат Шонеъматга меҳрибонлик кўрсатади. Унга эмас.
- ◉ - Хадича тўғри айтади. Ҳар кимнинг ташвиши ўзига етади.

Муаммонинг ечими учун мақбул
фаразлар танланади



Якуний ечимга ундовчи савол

● Инсон маънавиятини шароит ўзгартирадими ?

НАТИЖА

Ўғил ўз онасининг қотили эмас. Қотил - уруш

Қийинчилик инсон маънавиятини синовдан ўтказиш воситаси

оиланинг бошига тушган ташвишларга, фожиага энг биринчи айбдор уруш



Bundan tashqari har bir o'quvchining olgan bilimlarini, nutqiy faolligini, shaxsiy fikrlash qobiliyatini o'stirish va uni baholash maqsadida tarqatma kartochkalaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir o'quvchiga bittadan savol yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Bu savollar o'quvchilarning nutqiy faolligini va bilimlarini qay darajada ekanligini aniqlashga xizmat qilish darajasida tuzilgan bo'lishi zarur. O'quvchilarga hikoya haqida bilganlarini sodda va lo'nda qilib, aniq va ravon qilib aytishlari talab qilinadi. Shundagina bu usulni qo'llash uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalaniladi. Asosiysi o'quvchilar nutqiy faoliyati davomida o'z fikrlarini ortiqcha kerak kerak emas so'zlarini ishlatmasdan, aniq va lo'nda holda so'zlovchiga yetkazib berish qobiliyatiga ega bo'lishadi, yani ularda nutqiy intellekt oshadi. Bu esa insonning jamiyatda o'z o'rnini egallashda va hurmat-etibor qozonishda eng asosiy omildir. Shu maqsad va vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda o'quvchilarga tarqatma kartochklar tarqatiladi.

Keys. O'zbek adabiyotida hikoya janri taraqqiyoti.

Barkamol ijod namunalari doimo iste'dodli shaxslar tomonidan yaratiladi. Ijodiy tafakkur mahsuli hisoblangan asarlar millatning talantli, bilim, fikrlash darajasi keng, qobiliyatli kishilari tomonidan yaratiladi. Ma'lum bir asar yaratilinar ekan albatta, unga xos shakl va mazmun, syujet va kompozitsiya, eng asosiysi mavzu va g'oya tanlanadi. Yuqorida ta'kidlanganlardan masalaga yondashsak, badiiy ijod turlari uchun "janr" tushunchasi ahamiyat kasb etadi. "Har bir gulning o'z ifori, chiroyi va shifosi" bo'lganiday barcha turdagi janrlarning o'z tarxi bor. Tarxi deganimiz bir qadar sun'iy tuyulishi ham mumkin. Har qanday tarxning asosida nima, qanday, qanaqa, nechta yoki qancha kabi o'nlab savollar gipoteza va aksiomalar yotadi. Demak, tarx bino uchun shaklni, bog' uchun darxtni, tog' uchun toshni, kiyik uchun go'zallikni, yor uchun go'zallik va hokazolarni tashkil etadi. Dunyoda biri ikkinchisiga monand, mushtarak va tom ma'nodagi farqli xususiyatlarga ega bo'lgan turdosh hodisa va narsalar, shuningdek shakl va

ko‘rinishlar talaygina. Epik tur janrlari bo‘lmish hikoya, qissa, romandagi o‘xshashliklar va tafovutlar haqida istagancha mulohaza yuritish mumkin. Bu janrlarga xos tipologiyani farqlamay turib, muayyan janrga mansub asar yaratish ham, uning nazariy masalalari xususida mulohaza yuritish ham to‘g‘ri emas. Shuningdek, hikoya janri haqida fikr yuritilinar ekan, uning mumtoz adabiyotimizda yaratilgan hikoyatlarni Hikoya janri hajman ixchamligi, shakl va mazmun kompozitsiyasi, qurilishi, til, uslub va boshqa poetik unsurlar originalligi bilan g‘oyaviy-emotsional qiymat kasb etadi. Unda qahramonlar tayyor holda sahnaga chiqishi ham, voqelik tasviri jarayonida yaxlit obraz-xarakterga aylanishi ham mumkin. Bu jihat hikoyanavisning tasvir uslubiga, badiiy niyatini, aniqrog‘i estetik idealiga bog‘liq.

Bu kichik epik janrning poetik imkoniyatlari kattadir. Hikoya uchun voqeani quruqdan quruq so‘zlab berish emas, balki obrazlar, ramzlar, badiiy usullar vositasida xarakter yaratish muhimdir. Hikoya - inson tafakkuriga bir zarb bilan tezda muhrlanadigan, go‘zal poetik shakl qurilishiga ega adabiy hodisa sanaladi. Hikoya bamisoli o‘z o‘rnida topib aytilgan qanotli ibora, frazeologik birlik, bir gapga joylashgan hikmat. Siz bu hodisani qanday izohlaysiz? Hikoyachilikda “hikoya” bilan bir qatorda “novella” termini uchraydi. Ularning farqli tomonlari bormi? Mumtoz adabiyotda hikoya janriga mansub asarlar yozilganmi? Ushbu muammolarning yechimini toping va yozma tarzda bayon qiling?

Xulosa qilib aytganda, ta'limning mazmuni har tomonlama yetuk ma'naviyatli, ma'rifatli kadrlarni kamol toptirish, voyaga etkazish har bir ta'lim-tarbiya beruvchi shaxsdan ya'ni, o'qituvchidan, yuksak iste'dod talab qiladilar. Bu iste'dod faqat o'qituvchining bilimini oshirishga qaratilgan bo'lishi, buning uchun o'qituvchi hamma soha bilan hamnafas bo'lishi nazarda tutiladi. Har bir darsga alohida mas'uliyat bilan tayyorlanish o'qituvchining muqaddas burchidir. Bilimdonlik, tajriba, kasbiy mahorat, ko'nikma adabiyot darslarining samaradorligini oshiruvchi muhim omildir.

Xulosa

O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodini o‘rganish orqali o‘quvchilar hikoya janri haqida, hikoyani o‘rganishda foydalanish lozim bo‘lgan metodlar, pedagogik texnologiyalar, o‘yin turlari, savol va topshiriqlar bilan ishlash, muammoli vaziyat yaratish, hikoyani obrazlar tizimiga ko‘ra o‘rganish kabi dars samaradorligini taminlovchi metod, vosita va usullarni o‘rganib olishadi.

O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi yuzasidan olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish usullarini ushbu malakaviy ishimizda yoritib berishga harakat qildik.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” dagi ona obrazi farzandi uchun har qanday og‘irlikka tayyor, zarur bo‘lsa jonini berishga tayyor ona obrazini ko‘ramiz. Imoni but, adolat tuyg‘usi kuchli, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalangan ona obrazi yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda buyuk obraz hisoblanadi. Biz badiiy asarlar orqali ma’naviyat ulashamiz. Bu asar bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi.

Adabiyotshunos olim Abdig‘ofur Rasulov takidlaganidek: “Dunyoning ishlarini his qilib, anglab o‘qigan kitobxondan, kimligi, qaerda yashashi, e’tiqotidan qat’iy nazar, zinxor oqnador, onabezori chiqmaydi.

O‘tkir Xoshimovning “Urushning so‘ngi qurboni” hikoyasi urushning fojiali oqibatlarini, inson ongi, ruhiyatidagi o‘zgarishlar, ochlik muhtojlikning oqibatlaridan voqif bo‘lgan o‘quvchi bugungi kunga shukronalar bilan yashash, qadriga etish hayotda har qanday vaziyatlarga chidamli bo‘lish kabi hayotiy hulosalar chiqarishga undaydi.

Dastur talablaridan biri ham o‘quvchilarga talim berishda asosiy maqsad ular ongiga fan asoslarini puhta singdirish orqali ularni diyonatli, etiqodli qilib o‘stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashishni tarbiyalash, egallagan bilim va ko‘nikmalarini hayotga tadbiq etish qobiliyatini o‘stirishdan iboratdir.

Interfaol usullar o‘qituvchi va o‘quvchini darslik, kitob, gazeta va jurnal, internet kabi qo‘shimcha manbalarga murojaat qilishga, mavzu yuzasidan axborotlarni mustaqil izlash, to‘plash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

Bugungi kunda ko‘pgina asarlar badiiy o‘qish ustalari tomonidan o‘qilgan va Internet saydlariga joylashtirilgan. Mazkur interaktiv portallar badiiy asarlarni mualliflar va aktyorlar tomonidan o‘qilgan variantlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Magnitofon kassetalarida yozilgan asarlarga qiyoslaganda darslarda internet materiallaridan foydalanish o‘qituvchilar uchun qulaylik tug‘diradi. Internet yozuvlarida munozarali o‘rinlar ham mavjud bo‘lib, ularni asarning asl nusxalari solishtirib, tanlab olgan holda foydalanish mumkin.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishda samaradorlikka erishishni ta'minlashdagi vazifalardan biri – pedagogik texnologiyalarga metodik ishlov berishdan iborat. O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga xolis baho berishga o‘rgatish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini alohida tatqiq qilish lozim.

O‘tkir Hoshimov ijodi, u yaratgan obrazlar vatanga, xalqiga sadoqat tuyg‘usini shakllantiradi.

Bu asarlarni amaliyotda chiroyli qilib o‘quvchiga yetkazish esa asarning tasirchanligini kuchaytiradi, qo‘yilgan maqsadning amalga oshishini taminlaydi.

O‘tkir Hoshimov xalqimizning sevimli, fidoyi, rostgo‘y yozuvchisi sifatida hamisha o‘z mavzui bo‘lib kelgan xalq hayotini qalamga olib, kitobxonlarga manzur bo‘ladigan asarlari bilan umrbod qalbimida, xotiramizda qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi "Xalq so'zi" // 2016 yil 8 dekabr
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 102 бет.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. O`zbekiston. 2018, 20 bet.
4. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor -ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. Toshkent, "O`zbekiston", 2009.
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Abduqodirov A. va b. Axborot texnologiyalari. – T.: 2002.
7. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot 5. Oqituvchilar uchun metodik qo'llanma). –T.: "Sharq", 2007.
8. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (5- sinf uchun darslik). –T.: "Sharq", 2015.
9. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (6- sinf uchun darslik). –T.: "Sharq", 2009.
10. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2012.
11. Duysenbayev O.I. O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent, 2011.
12. Zunnunov A., Xotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. T: "O'qituvchi", 1992.
13. Yo'ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: "O'qituvchi" 1994.
14. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
15. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Toshkent: "Yangi asr avlodi" 2006.

16. Matjonov S. “Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar” Toshkent: “O‘qituvchi” 1996.
17. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2006. – 112 b.
18. M.Mirqosimova. “O‘quvchilarni adabiy – estetik tahlilga o‘rgatish”. Toshkent: “O‘qituvchi” 1994.
19. Niyozmetova R. O‘zbek tili darslarida yangi o‘zbek adabiyotini o‘qitish masalalari. Toshkent, 2010.
20. Niyazmetova T.R. Adabiy ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish G'G' Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – B. 6-10.
21. Nishonova S. Adabiyot darslarida tasviriy san'at materiallaridan foydalanishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati. "O‘zbek tili va adabiyot o‘qitish metodikasini takomillashtirish" to‘plamida. Toshkent: O‘zPFITI, 1983. – B. 69-76.
22. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent: “Tamaddun”, 2010.
23. Rasulov A. Ardoqli adib. O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. Kitob. 2001. «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi.
24. Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent, Sharq, 2014.
25. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 152 b.
26. To‘xliyev B., Niyozmetova R. va b. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2011.
27. To‘xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun. –T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
28. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun adabiyotdan rejalashtirish. – T.: RTM, 2011. – 24 b.
29. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (5-9 sinflar). –Yangiyo‘l: “Yangiyo‘l poligraf service”, 2010.

30. Usmonova O. Yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatish usullari. Metodik qo'llanma. – T.: 2008.
31. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
32. Sharafiddinov O. O'tkir Hoshimov. Adabiy portret. «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» darsligi. 1999.
33. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limining umumta'lim fanlari Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent: “Sharq” 2001.
34. Qosimova M. Badiiy asar qahramonlari xarakterini portretlar tahlili vositasida yoritish. O'zbek maktablarida ona tili va adabiyot darslari samaradorligini oshirish: Ilmiy asarlar to'plamida. – T.: O'zPFITI, 1990. – B. 85-89.
35. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent, 2009.
36. <http://www.gov.uz/> Nizomiy nomidagi TDPU sayti.
37. <http://www.pedagog.uz/> Pedagogika muassasalari portali.